4. Aniqlik (empirik)dan mavhumlikga o'tish metodi.

5. Mavhumlikdan (nazariy anglangan) o'tish metodi.

6. Nazariy jihatdan mumkin bo'lgan vaziyatni modellashtirish metodi (ta'lim sifati, uning tavsiflari, o'quv mashg'uloti tuzilmasi, ta'lim dasturi bo'limining mazmuni, shaxslararo munosabatlar shakli va mazmuni).

7. Pirovardida tegishli tarkibiy qismlar bilan birga kirishdagi pedagogik jarayonning nazorat qilinadigan tuzilmasi (masalan, bilish faoliyatini)ni chiqishda tegishli tarkibiy qismlar bilan taqqoslashga asoslangan metod.

8. Mushohada orqali tajriba-sinov qilish usuli (umuman, yuz berishi mumkin (butunning yangi sifatlarini aniqlash maqsadida butundagi qismlarning funktsiyalarini mushohada yo'li bilan o'zgartirish).

9. Imkoniyatlardan to'liq foydalanish metodi.

10. Taqqoslash metodi (muqobillarni istisno etuvchi qarshi kurash).

11. Tadqiqotchi aralashuvisiz tizimning rivojlanishini prognozlash.

Farazlar, taxmin qilinayotgan pedagogik vaziyatlar tuzilayotgan, ularning shaxs shakllanishiga, ta'lim faoliyatining (ta'lim sifatining) pirovard natijasiga ta'siri hisobga olinganda, amalda haqqoniy pedagogik shart-sharoitlarni yaratish mumkin bo'lmagan hollarda nazariy tadqiqotning sanab o'tilgan metodlari o'rnini hech narsa bosolmaydi.

Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda, uning jadallashuvi yoki deppinishida ta'lim rolining ortib borishi, aholining yangi-yangi ijtimoiy guruhlari va qatlamlarining ta'lim faoliyatiga jalb qilinishi olimlar va mutaxassislarining unga e'tiborini kuchaytirishni talab qiladi.

Ta'lim sifati muayyan ma'noda iqtisodiy omildir, chunki u ishlab chiqarish jarayonlariga, fan-texnika taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan jamiyatda jarayonlarni tahlil qilish va prognozlash vositasi bo'lgan tizimli yondashuv, tizimli metodlar g'oyalari va tamoyillarining haqiqiy ijtimoiy faoliyat nazariyasi hamda amaliyotiga joriy qilish muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tizimli tahlil metodlarini ijtimoiy jarayonlarni baholash va prognozlashda qo'llash muammolarini ko'rib chiqqan holda butun ijtimoiy munosabatlar majmui yaxlit hodisa sifatida namoyon bo'layotganligidan kelib chiqish lozim. Bunda, insonning tabiat bilan o'zaro munosabatlaridan farqli

o'laroq, inson yoki kishilar guruhining ongli, aniq maqsadga qaratilgan faoliyati ob'ekti sifatida jonsiz buyumlar yoki jarayonlar emas, balki ongga ega bo'lgan va ongli faoliyat yuritayotgan odamlar va ijtimoiy guruhlar namoyon bo'ladi.

Ushbu holatda inson yashayotgan tabiiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muhitning birligi va ajralmasligi haqidagi tezis asosiy qoida hisoblanadi. Mamlakatning madaniy, tarixiy, milliy va diniy xususiyatlari sharoitida ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy, me'yoriy-huquqiy va boshqa tomonlar bilan jips aloqada bo'lishi buning oqibatidir.

Ijtimoiy muammolarni tadqiq qilish moddiy ob'ektlarni tadqiq qilishdan tubdan farq qiladi. Buni, birinchidan, ijtimoiy ob'ektlarning o'ziga xosligi va tuzilishi haddan tashqari murakkabligi (xususan, ularning tarkibiy elementlari va aloqalari ko'p funktsionalligi) taqozo qiladi. Ikkinchidan, har doim ham bir xilda talqin qilinmaydigan ob'ektlarni tavsiflash an'anasi vujudga kelganligi; uchinchidan, bu ijtimoiy fanlarning o'zi murakkabligi, ular inson omilining turli jihatlari bilan jips aloqada ekanligini taqozo etadi.

Jamiyatdagi real jarayonlarni o'rganish, odatda, mavjud ijtimoiy vaziyatni o'zgartirish yoki ijtimoiy rivojlanishning yangi konsepsiyalarini taklif qilish ehtiyojiga bog'liq.

Aloqalarning haddan tashqari murakkabligi ta'lim tizimining xususiyatlaridandir. Bunda ulardagi sabab-oqibat aloqalari ba'zan juda qiyin ilg'andi, shu bois, ilmiy jihatdan tahlil qilinmay qoladi. Binobarin, uning tavsiflovchi sifat qismlarini, elementlarini, omillarini va xususiyatlarini umumiy maqsaddan ajratib olish muhim dastlabki shart, mohiyatan ta'lim tizimlari va jarayonlarini ilmiy modellashtirishga doir ishlarning ilk bosqichi hisoblanadi. Keyinchalik ob'ektiv ravishda o'lchanadigan kattaliklar yordamida ularga miqdoriy ma'no baxsh etilib, modelda aks ettiriladi, so'ng ular o'rtasidagi eng muhim, asosiy, qonuniy aloqalar belgilanadi.

Ushbu tadqiqot ob'ekti — «ta'lim sifati»ning murakkab va ko'p darajali xususiyati uni tahlil qilishga tizimli yondashuv zarurligini taqozo qiladi. Tizimli yondashuvni tadqiqot metodologiyasi sifatida qo'llanish ehtiyoji boshqa yondashuvlar imkoniyati tugab bitganligi bilan emas, balki uning pirovard maqsad sifatida tadqiq qilinayotgan jarayonlarni tashkil etish samaradorligini oshirishi bilan izohlanadi. Aynan tizimli yondashuv barcha muayyan vaziyatlar, nuqtai nazarlar va maqsadlarni ijtimoiy-iqtisodiy omillar majmuasida tadqiq qilgan holda, bir qator muammolarni hal etishga yangicha yondashish imkonini beradi. Shu tufayli mavjud axborotdan to'liqroq va maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanish, uni darajalar bo'yicha to'g'ri taqsimlash, yuz berishi mumkin bo'lgan nuqson va kamchiliklarni aniqlash, kechayotgan jarayonlarni o'rganish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni izchillik bilan izlash imkoniyati vujudga keladi.

Ta'lim sifatiga tizimli yondashuv, birinchidan, uni yaxlit bir butun va tashqi muhit bilan sababiy-oqibatli bog'lagan holatda ko'rib chiqishni, ikkinchidan, ta'lim maqsadlari va ushbu sohada qabul qilinayotgan qarorlarni o'rganishni, uchinchidan, unda yuz berayotgan jarayonlarni modellashtirishni bildiradi.

Kitobda tizimli tahlilning asosiy qoidalarini tavsiflash vazifasi qo'yilmagan, ularning tavsifini e'lon qilingan ko'plab maqolalardan qiyinchiliksiz topish mumkin. Bunda, maqsad tadqiq qilinayotgan ob'ektda uni qo'llash imkoniyatlari va chegaralarini ko'rsatishdan iboratdir.

Turli sohalarida tizimli tahlil metodlaridan foydalanish masalalarini ko'rib chiqishda ikki xil yondashuv mavjud.

Birinchi yondashuv tarafdorlari tadqiq qilish jarayonida aniq qo'yilgan muammoni hal qilish uchun turli o'zgaruvchanlarni va cheklashlarni o'z ichiga olgan matematik va mantiqiy tenglamalar tizimi vujudga keltiriladigan «tizimli matematik tahlil»ga tayanadilar. Vazifa matematik yoki imitatsion metodlar asosida tizimning tarkibi yoki maqbullikning pirovard mezoni nuqtai nazaridan eng yaxshi bo'lgan tizimining konstruksiyalanishi yoki amal qilishi rejasini ko'rsatuvchi miqdoriy belgilangan echimini topishdan iborat.

Boshqacha yondashuvda asosiy e'tibor «tizimli mantiqiy tahlil»ga qaratiladi. Bunda tizimli tahlil echimlarni ishlab chiqish vositasi sifatida, avvalo, muammoni tushunish va tartibga solish yoki ayni narsa hal qilinishi lozim bo'lgan muammoni «tarkiblashtirish» metodologiyasi sifatida ko'rib chiqiladi.

Ikkinchi yondashuvning tizimli tahlili — bu tadqiq qilish bo'lib, uning maqsadi qaror qabul qiladigan boshqaruv xodimiga haqiqiy maqsadlarni muntazam o'rganish, xarajatlarni, maqsadga erishish strategiyasining har bir muqobili bilan bog'liq samaradorlik va tavakkalchilikni miqdoriy qiyoslash (buni amalga oshirish mumkin bo'lgan joyda) yo'li bilan, shuningdek, agar muqobil deb hisoblansa,

qo‘shimcha muqobillarni ta‘riflash orqali harakat yo‘lini tanlashda yordam berishdan iboratdir.

Bundan, birinchidan, tizimli tahlil qaror qabul qilishga mas‘ul bo‘lgan shaxslarning faoliyatiga yordam berish uchun aniq yo‘naltirilganligi va, ikkinchidan, tahlil metodologiyasining maqsadlarini aniqlash, qayta ko‘rib chiqish va anglab etishni hisobga olgan holda maqsadga erishishga doir imkoni boricha keng ko‘lamdagi muqobil imkoniyatlarni aniqlaydigan, tahlil qiladigan va baholaydigan qilib qurish kerakligi to‘qrisida xulosa kelib chiqadi. Metodologiyaning aynan ana shu qirralari ilmiy-tahliliy metodlarning turli faoliyat sohalarida (shu jumladan ta‘lim sohasida ham) qarorlar qabul qilishga ta‘siri to‘g‘risida gapirish imkonini beradi.

Mamlakatimiz va chet ellik etakchi olimlarning inson faoliyati turli sohalarida tizimli tahlil usullaridan foydalanish metodologiyasiga yondashuvlarini tahlil qilgan holda, har bir muallif o‘zining tahlilini o‘tkazish bosqichlarining u yoki bu ma‘nodagi o‘ziga xos tasnifini taklif etayotganiga qaramay, qarashlarda umumiylik mavjudligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish asosiga aynan ana shunday yondashuvlar qo‘yilgan bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy sohada tizimli tahlilni qo‘llash imkoniyatlari muayyan tarzda cheklangan. Mutaxassislarning fikricha, tizimli tahlilga murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilish to‘g‘risidagi fan sifatida qaramaslik lozim. Bu butkul amaliy yondashuv bo‘lib, uning maqsadi rahbariyatga muayyan muddatda taqdim etilishi kerak bo‘lgan aniq tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Ta‘limda modellashtirish muammolari o‘zgaruvchanligi miqdoriy o‘lchashda vujudga keladi. U yoki bu sifat ko‘rsatkichlarini kiritishdan oldin, jarayonlarning qadriyat tabiati bilan kelishgan holda, ularni o‘zgartirishga yo‘l qo‘yish mumkinligi haqidagi masalani hal qilish zarur.

Faoliyatning aniq turlarini tuzishdan oldin konseptual model yaratiladi. U go‘yo keyingi o‘ziga xos barcha modellarga zamin yaratib, ularni sharhlash va taqqoslashda yordam beradi.

Konseptsiya mazmuni modelda o‘z aksini topadi. Matnga oid tahliliy tavsifda kiritilgan har bir konsept turli talqinlar chegarasini buzmasa, bir-biriga yaqinlashtiradigan kontekst bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Qandaydir bitta o‘zgaruvchanning (konseptual sxema bo‘g‘inining) noto‘g‘ri idrok etilishi butun konstruktsiyaning noto‘g‘ri idrok etilishiga olib keladi. Faqat ijodiy izlanish, xilma-xil yondashuvlar orqali chuqur mazmunga ega bo‘lgan samarali universal modelni yaratish mumkin bo‘ladi.

3-Mavzu: **Maktabgacha ta‘lim muassasalarida pedagogik jarayonni boshqarish**

Reja:

1. Maktabgacha ta‘lim muassasalarida pedagogik jarayonni boshqarishni tahlil qilish
2. Pedagogik jarayonni rejalashtirish
3. Pedagogik jarayonni rejalashtirishni o‘rganish

Rejalashtirish va tashkil qilish ishini bajarish tufayli ta‘lim muassasasi jamoasi a‘zolarining kuch-g‘ayratini samarali birlashtirish uchun zarur, ammo etarli bo‘lmagan shart-sharoit yaratiladi. Amaliyotdan shu narsa ma‘lumki, odamlar real bajarayotgan ishlar ularga qo‘yilayotgan rasmiy talablarga har doim ham mos kelavermaydi. Ijtimoiy tashkilotlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularga kiruvchi odamlar o‘z sabablariga ega bo‘lgan holda, o‘z oldilariga o‘zlari maqsad qo‘yishga qodirdirlar. Ular nimanidir qilishni xohlashlari va xohlamasliklari va shunga qarab ishlashlari mumkin. Odamlar tashkilotga kelgach, u o‘zlarining manfaatlarini amalga oshirish imkonini berishini xohlashadi. Bu hol yuz bermasa, ular yo tashkilotdan ketadilar yoki salohiyatlari va iqtidorlarini ishga to‘liq safarbar etmaydilar.

Birgalikdagi faoliyat yaxshi rejalashtirilgan va uyushtirilgan bo‘lsa, ijrochilar bu jarayonga tuzatish kiritishni talab qiladigan qandaydir ichki va tashqi shart-sharoit o‘zgartirishga qadar nimani, qaerda va qay yo‘sinda bajarishlarini bilishgandagina u muvaffaqiyatli kechadi. Bu o‘zgarishlar rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshirish uchun xavf tuqdirishi yoki, aksincha,

qandaydir yangi imkoniyatlarni ochishi mumkin. Boshqaruv yuz berayotgan o'zgarishlarga o'z vaqtida munosabat bildirishi, buning uchun esa bu haqda axborotga ega bo'lishi lozim. Bunday axborotni olish va ishning borishiga tuzatish kiritish zarurligini aniqlash uchun nazorat qilish deb ataladigan maxsus boshqaruv harakatini amalga oshirish zarur.

Boshqaruv nazorat tufayli o'zi usiz faoliyat yuritmaydigan eng muhim tarkibiy qism — qayta aloqaga ega bo'ladi. Nazorat boshqaruvning «ko'zini ravshan» va o'zgarishlarga nisbatan ta'sirchan qiladi. Ushbu o'zgarishlarga munosabat esa rejalashtirish, tashkil etish va rahbarlik qilish orqali amalga oshiriladi. Natijada boshqaruv davrasi yopiq holga keladi.

Rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish va nazorat qilish murakkab tuzilmaga ega bo'lib, o'zi ham ko'plab boshqa ishlardan tashkil topadi. Masalan, u rejalashtirish, vaziyatni tahlil etish, prognozlash, maqsad qo'yish, samaradorlikni baholash, ish rejasining biron-bir variantini tanlash haqida qaror qabul qilish kabilarni o'z ichiga olishi mumkin. Rahbarlik qilish qo'l ostidagi xodimlarga topshiriqlar berish, jamoa ahvolini tahlil qilish, qo'l ostidagi xodimlarning ishini baholash, taqdirlash va jazolash haqida qarorlar qabul qilish, xodimlarni xabardor qilish, nizoli vaziyatlarni hal qilishni va h. k. ko'zda tutadi.

Ta'lim muassasasini boshqarishda bitta emas, balki ko'plab boshqaruv turkumlari amalga oshiriladi. Bu turkumlar ierarxik tuzilmaga ega — xususiy turkumlar nisbatan umumiylikni tarkibiga kiradi. Masalan, ta'lim muassasasida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning umumiy turkumida boshlanqich va umumiy o'rta ta'limni rejalashtirish, tashkil etish, unga rahbarlik va uni nazorat etish turkumlari ajratib ko'rsatiladi. Bu turkumlar ham, o'z navbatida, murakkab tuzilmaga ega. Masalan, boshlang'ich ta'limni boshqarish turkumi ichida va ayrim sinflar, predmetlarni o'rganishni rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik qilish, nazorat qilish turkumlari ajratiladi.

Boshqaruv jarayonida, ayni paytda, turli boshqaruv turkumlari ishi amalga oshiriladi. Kimdir mashg'ulotlar jadvaliga tuzatishlar kiritishi, kimdir o'qituvchining ishini nazorat qilib borishi, yana kimdir pedagogika kengashining ish rejasini muhokama qilishi mumkin. Bu boshqaruv turkumlarini nafaqat bexabar kuzatuvchi uchun, balki aksariyat boshqaruv sub'ektlari uchun ham nooshkor holga keltiradi. Ammo boshqaruv faoliyatining yaxlitligi uchun javob beruvchi ta'lim muassasasi rahbari ushbu turkumlarni tuzib, ularning har birini kuzatib borishi kerak.

Rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat qilish hokimiyat munosabatlarini amalga oshirishi tufayli boshqaruv ishi deb hisoblanadi.

Samaradorlik tushunchasi, garchi ijtimoiy munosabatlar jarayonida ko'p qo'llanilsa-da, boshqaruv nazariyasida eng kam ishlangan tushunchalardan biridir. Samaradorlikning umumiy nazariyasi mavjud bo'lmaganligi bois ushbu yo'nalishdagi barcha urinishlar hozircha kutilgan natijaga olib kelmadi. Faoliyatning turli sohalarida samaradorlikning o'z xususiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ammo ta'limda bugungi kunda bunday ko'rsatkichlar yo'q. Shunga qaramay, samaradorlik tushunchasi sifatga yo'naltirishda juda muhim va foydalidir. Vazifaning butun murakkabligini anglagan holda, boshqaruv samaradorligi nima ekanligini aniqlashga urinib ko'ramiz.

Samaradorlik haqida gapirishdan oldin faoliyat unumdorligi tushunchasini kiritamiz. O'ar qanday faoliyat ozmi-ko'pmi unumli bo'ladi. Unumdorlik — bu qandaydir vaqt ichida olingan natijalarning foydaliligi va u bilan bog'liq xarajatlar o'rtasidagi nisbatni ko'rsatuvchi faoliyat xususiyati demakdir.

Unumdorlikdan ko'pincha boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichi sifatida foydalaniladi. Garchi faoliyat unumdorligi bilan boshqaruv samaradorligi bir-biriga bog'liqligi shubhasiz bo'lsa-da, biroq ular bitta narsa emas. Ta'limning boshqa ta'lim muassasasiga nisbatan yuqoriroq natijalari ushbu ta'lim muassasasida boshqaruv sifati yuqori bo'lishidan har doim ham dalolat beravermaydi.

Masalan, ta'lim muassasasi ajoyib moddiy bazaga ega bo'lsa, moliyalashtirishning qo'shimcha manbalari hisobiga o'qituvchilarga boshqa ta'lim muassasalaridagiga nisbatan yuqoriroq ish haqi to'lay olsa, ushbu barcha ne'matlardan mahrum bo'lgan oddiy ta'lim muassasasidagiga qaraganda ta'lim sifati yuqoriroq bo'lishini ta'minlashi mumkin. Lekin masala har bir ta'lim muassasasi o'zida mavjud imkoniyatlardan nechog'li yaxshi foydalanayotganligidadir.

Boshqaruv sifatini baholash aynan shu savolga beriladigan javobga bo'liq. Boshqaruv o'z

vazifasiga ko'ra foydali natija olish uchun imkoniyatlardan to'liq foydalanishni ta'minlashi kerak. Ushbu vazifani qanchalik yaxshi uddalasa, u shunchalik samarador bo'ladi.

Boshqaruv samaradorligi deganda erishilgan va erishish mumkin bo'lgan unumdorlik o'rtasidagi munosabatni aks ettiruvchi xususiyatni tushunamiz.

Bunday ta'rifni faoliyat ko'rsatishni boshqarishga nisbatan ham, rivojlanishni boshqarishga nisbatan ham ishlatish bo'ladi. Lekin bu holatlarning har birida turli natijalar va turli xarajatlar hisobga olinishi kerak. Ta'lim muassasasi o'zi uchun ta'lim sifati iloji boricha yuqori darajada bo'lishini ta'minlay oladi (bu yuqori samaradorlik hamda faoliyat yuritishni boshqarishdan dalolat berishi mumkin), ammo ayni paytda u yangiliklarni o'zlashtirish va o'zining salohiyatini kuchaytirish uchun ob'ektiv tarzda ta'limning mavjud imkoniyatlaridan foydalanmasligi mumkin. Bu ta'lim muassasasini rivojlantirishni boshqarish samaradorligi pastligidan dalolat beradi.

Ta'lim sifati ta'lim oluvchi yoshlarning xabardorligini rivojlantirishni ta'minlaydigan ta'lim faoliyatining turli jihatlarini, o'qitish mazmuni, shakllari va metodlarini, moddiy-texnika bazasini, kadrlar tarkibini va h. k. tavsiflovchi ko'rsatkichlar yig'indisi bilan belgilanadi.

«Bilimdonlik» («xabardorlik») termini menejmentda keng qo'llaniladi. Ammo uni ta'lim tizimida ishlatish u qadar ommalashmagan. O'quvchilar va talabalarga nimani berish maqsad qilib qo'yilganligini aniqlash uchun ko'pincha bilim, qadriyat yoki ishonch va e'tiqod tushunchalaridan foydalanib kelingan (hozir ham shulardan foydalanilmoqda).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonov Sh., Sayitxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. –T.: Turon-Iqbol, 2006. – 592 b.
2. Djuraev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. –T.: Voris-nashriyotII 2006. -259 b.

4-Mavzu: Rahbar tomonidan rejalashtirilgan boshqaruv harakati

Reja:

1. Boshqaruv faoliyatini to'g'ri amalga oshirish. 2.Xodimlar faoliyatini samarali boshqarish va muvofiqlashtirish.
- 3.Muassasa oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'llari. Zamonaviy boshqaruvni barcha bo'g'inlarida samarali ishlay oladigan yuqori malakali kadrlar tayolash.
4. Rahbarga bo'ysunishda jamoa ta'siri.Ta'lim sohasida boshqaruv madaniyati.

Ta'limga tatbiqan bu tamoyilning roli juda katta, chunki tarmoqning xususiyati ijro intizomi darajasigagina emas, balki moliyaviy intizomga hamda vazirdan tortib o'qituvchigacha bo'lgan barcha xodimlarning ichki intizomiga oshirilgan talablar qo'yilishini taqozo etadi. Shu bilan birga, intizom xodimlarning tashabbusini bo'g'ib qo'yimasligi va ishga ijodiy munosabatda bo'lish uchun imkoniyat qoldirishi kerak.

Rag'batlantirish tamoyili, eng avvalo, moddiy va ma'naviy rag'batlardan foydalanish asosida mehnat faoliyatini motivatsiyalashni ko'zda tutadi. Moddiy rag'batlantirish xodimlarning mehnat natijalaridan shaxsiy iqtisodiy manfaatdorligiga, ma'naviy rag'batlantirish esa — asosan xodimlarga psixologik ta'sir ko'rsatishga tayanadi. Xodimlarning turli ma'naviy ehtiyojlari, ya'ni mansublik, taalluqlilik va muvaffaqiyatga bo'lgan ehtiyojlari undovchi sabablar bo'lishi mumkin.

Binobarin, ragʻbatlantirish tamoyili mazmunini, koʻpincha amaliyotda boʻlganidek, faqat ish haqiga bogʻlab qoʻyish notoʻgʻri. Ragʻbatlantirish, shuningdek, maʼnaviy ragʻbat va sabablardan foydalanishni, xodimlarga adolatli munosabatda boʻlishni ham koʻzda tutadi.

Ierarxiklik (koʻp pogʻonalilik) tamoyili boshqaruv mehnatining vertikal taqsimlanishini, yaʼni, boshqaruv darajalarining boʻlinishini hamda boshqaruv quyi darajalarining yuqori darajalarga boʻysunishini koʻzda tutadi. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalarini shakllantirishda, boshqaruv apparatini tuzishda, kadrlarni joy-joyiga qoʻyishda ushbu prinsip hisobga olinadi.

Boshqaruvning barcha tamoyillari bir-biri bilan uzviy bogʻlangan va biri ikkinchisini taqozo qiladi. Masalan, rejasiz, bilimdon boʻlmasdan, intizomsiz va ierarxiksiz tashkilotning aniq maqsadga yoʻnaltirilgan faoliyatini taʼminlab boʻlmaganidek, boshqaruvning boshqa (aniq maqsadga yoʻnaltirilganlik, rejalilik, bilimdonlik, ragʻbatlantirish, intizom) tamoyillarini inkor etgan holda boshqaruv tizimining aniq faoliyat yuritishiga erishib boʻlmaydi.

Boshqaruvning umumiy tamoyillari bilan birga yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, mahalliy xususiyatga ega boʻlgan va faqat ayrim boshqaruv jarayonlarini hamda boshqaruv jihatlarini tartibga soladigan xususiy tamoyillari mavjud. Masalan, taʼlim muassasalarini boshqarishga tatbiqan, odatda, boshqaruv jarayonlarining uzluksizligi ajratib koʻrsatiladi.

Boshqaruv qonuniyatlari va tamoyillari boshqarish funksiyalari bilan uzviy bogʻliqdir.

Taʼlimni boshqarish funksiyalari — bu ular boshqaradigan kichik tizim boshqaruv obʼektiga taʼsir koʻrsatishida yordam beradigan faoliyat turlaridir. Boshqaruv funksiyalari umumiy va xususiy (maxsus) funksiyalarga boʻlinadi. Umumiy funksiyalar boshqaruvning barcha ijtimoiy tizimlariga xos funksiyalardir. Xususiy funksiyalar muayyan xususiyatga ega.

Menejmentga tatbiqan strategik rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiyalash, nazorat kabi umumiy funksiyalar ajratib koʻrsatiladi.

Strategik rejalashtirish tashkilotning oʻz maqsadlariga maqbul darajada erishish uchun qoʻllaniladigan harakatlar yigʻindisidir.

Strategik rejalashtirishning mohiyati tashkilotning maqsadlariga erishishga qaratilgan oʻziga xos strategiyasini ishlab chiqishdan iborat. Menejmentga tatbiqan strategiya tashkilotning maqsadlariga maqbul darajada erishishni taʼminlaydigan har tomonlama majmuini rejalashtirishni bildiradi.

Strategik rejalashtirish boshqaruv faoliyatining toʻrtta asosiy turini: resurslarni taqsimlash; tashqi muhitga moslashish; ichki muvofiqlashtirish; oldindan koʻra biladigan uyushgan strategiyani koʻzda tutadi.

Kishilar xatti-harakatida ehtiyojlar va manfaatlar muhim rol oʻynaydi. Ehtiyoj — bu insonning biron-bir kamchilikni fiziologik va psixologik his qilishi, taqdirlash esa inson oʻzi uchun qadrli deb hisoblagan barcha narsani his qilishi demakdir. Anglab yetilgan ehtiyojlar harakatga undaydi. Odamlarning faoliyati bilan erishiladigan ehtiyojlarning yigʻindisi boshqaruv metodlarining iqtisodiy, tashkiliy-boshqaruv va ijtimoiy-psixologik singari motivatsion yoʻnalishlarini belgilab beradi.

Boshqaruvning iqtisodiy metodlari moddiy motivatsiyani, yaʼni muayyan koʻrsatkichlar yoki topshiriqlarni bajarishga va, ular bajarilgach, ish natijalari

uchun iqtisodiy taqdirlashga yo'naltirishni taqozo etadi. Shunday qilib, boshqaruvning iqtisodiy metodlaridan foydalanish ish rejasini shakllantirish va uning amalga oshirilishini nazorat qilish bilan, shuningdek mehnatni moddiy rag'batlantirish, ya'ni muayyan miqdor va sifatdagi mehnat uchun taqdirlashni hamda miqdori muvofiq kelmaganligi va tegishli sifatga ega bo'lmaganligi uchun jazo chorasi qo'llanilishini ko'zda tutuvchi ish haqining oqilona tizimi bilan bog'liqdir.

Boshqaruvning tashkiliy-boshqaruv metodlari qonunga, huquq-tartibotga, lavozimi bo'yicha o'zidan yuqoriroq bo'lgan xodimga bo'ysunishga, ya'ni hokimiyat motivatsiyasiga asoslanadi. Boshqaruvda bu motivatsiya g'oyat muhim rol o'ynaydi. U davlat darajasida qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlarga shubhasiz rioya qilinishinigina emas, boshqaruv xodimlari va ular qo'l ostidagilarning boshqaruv xodimining ko'rsatmasi uning qo'l ostidagilar tomonidan ijro etilishi majburiy qilib qo'yadigan huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilishini ham taqozo etadi. Boshqaruv xodimining qo'l ostidagi xodimlarning ushbu munosabatlarga rioya etmasliklari jazo choralari (tanbeh, hayfsan, ishdan bo'shatish va h. k.) qo'llanishiga olib keladi.

Hokimiyat motivatsiyasi tashkil etish va o'zaro munosabatlar uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Tashkiliy-boshqaruv metodlarining o'zi esa uni maqbul tashkil etish asosida har qanday darajadagi boshqaruv tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan.

Ushbu metodlar tashkiliy rejalashtirish, tashkiliy me'yorlash, yo'l-yo'riq berish, boshqarish va nazorat singari masalalarni o'z ichiga oladi.

Makrodarajadagi tashkiliy-boshqaruv metodlariga boshqaruv ob'ektlarining huquq va majburiyatlarini tartibga soladigan va ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatishi uchun turli shart-sharoitlar yaratadigan qonun hujjatlarini kiritish mumkin.

Amaliyotning ko'rsatishicha, faqat moddiy va hokimiyat motivatsiyalarining qo'llanilishi tashkilotning maqsadlariga erishishda xodimlar va har bir xodimning ijodiy faolligini to'liq safarbar etish imkonini bermaydi.

Boshqaruvning maksimal samaradorligiga erishish uchun boshqaruvning ijtimoiy-psixologik metodlariga tayanadigan ma'naviy motivatsiyalar zarur. Ushbu metodlar yordamida xodimlar ongiga, odamlarning ijtimoiy, axloqiy va boshqa manfaatlariga ko'proq ta'sir ko'rsatiladi va mehnat faoliyati ma'naviy rag'batlantiriladi. Ma'naviy motivatsiya juda murakkabligi va nozikligi bilan farq qiladi. Uning pirovard samarasini aniqlash qiyin bo'lsa-da, natijalari salmoqlidir.

Matematik modellashtirish, ekspert baholash metodi, aqliy hujum metodi, o'yinlar nazariyasi va boshqalar boshqaruv qarorlarini maqbullashtirishning keng tarqalgan metodlari hisoblanadi.

Matematik modellashtirish boshqaruv qarorini osongina shakllantirish mumkin bo'lgan keng ishlatiladigan raqamli axborot asosida qabul qilingan hollarda qo'llaniladi. Matematik modellardan keng ko'lamda foydalanish muammoni miqdoriy tavsiflash va uni hal etishning maqbul variantini topish imkonini beradi.

7-Мавзу: Таълим сифатини бошқаришнинг ўзига хос хусусиятлари.

Режа:

1. Таълим муассасаси ҳозирги шароитда.
2. Таълим муассасаларининг ташқи муҳит ва ижтимоий ташкилотлар билан ўзаро муносабатлари.
3. Таълим муассасасининг ижтимоий-педагогик тузилмаси ва унинг фаолият натижалари.
4. Таълим муассасасининг фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш.

Таянч тушунчалар: таълим, педагогика, бошқариш, фаолият, тарбия, тизим, шахс,.

Ўқув модули бирликлари:

- 1) Бошқариш тамойиллари ва услуби
- 2) Раҳбар ва ҳокимият
- 3) Раҳбар ва вақт
- 4) Ишонтириш бошқаршининг асоси сифатида
- 5) Бўйсинувчилар билан ўзаро муносабат
- 6) Мотивлаш
- 7) Назорат

Аниқлаштирилган ўқув мақсадлари (талабанинг вазифалари).
Талаба ушбу мавзунини тўла ўзлаштиргандан сўнг бошқарув тамойиллари ва усуллари, раҳбарнинг ваколатлари, раҳбарнинг иш вақтини режалаштириш, бошқарув механизми, ишонтириш механизми, бўйсинувчи шахслар билан муносабатлар, рағбатлантириш, рағбатлантириш таркиби, механизми ва назоратини ўрганадилар.

Бошқарув тамойиллари:

1. Муаммоларни ечишга ижодий йўналиш.
2. Сифат натижаларига эришиш учун мунтазам режалаштириш.
3. Ҳолатга мос равишда бошқарув тури (ҳолатга ва қўл остидагиларга мослашиш қобилияти).
4. Ғояларга бир хил муносабат ва бир-бирини яхши тушуниш.
5. Барча аъзоларнинг ҳамкорлиги ва коммуникабиллиги.
6. Бунортмачига йуналтирилганлик.
7. Ижобий фикрлаш, қўлай муҳит ва муносабатлар.
8. Ваколат бериш ва ходимларнинг малакавий усишини таъминлаш.

Ижодий йўналиш принципи ўқув-тарбия жараёнини бошқаришда қўлланилади. Уни қўллашнинг зарурияти қуйидагилар орқали асосланади:

- ўқув фаолияти турларининг ҳар хиллиги (маъруза, семинар, амалий машгулот, коллоквиум, мустақил таълим, малакавий амалиётлар, курс ишлари вах.к.);
- ўқитиладиган фанларнинг турли-туманлиги;
- таълим олувчи шахсларнинг ўзига хослиги.

Мунтазам режалаштириш принципи ўқув-тарбия жараёнини амалга оширишда таълим массассасининг барча бўлинмаларида қўлланилади.

Мосланувчанлик принципини ҳолат ўзгариб турган шароитда фаолият кўрсатилаётган раҳбарлар қўллайдилар.

Ҳамфикрлилик принципи бошқарув идеалогиясини аниқлайди (ҳар бир муносабат).

Ҳамкорлилик принципи кафедрани, факълтетни, бўлим ҳамда ректорат томонидан бошқарувда қўлланилади.

Буюртмачига йуналтирилганлик институтнинг юқори курсларида талабаларни буюртмачига мослаштириш касб сирларини чуқур ўзлаштиришларига эришишни назарда тутади.

Ижобий фикрлаш принципи ҳамма вақт бошқарувнинг бошқа принциплари билан биргаликда қўлланилади.

Ваколат бериш принципи ходимларнинг малакасини оширишда қўлланилади.

Бошқарув принципларини танлаш ва самарали тарзда фойдаланиш муваффақиятга эришишнинг асоси ҳолос. Бошқарув самарасининг муҳим омили бошқарув усулидир.

Бошқарув усули.

Бошқарув усули раҳбарнинг бошқа қўл остидаги раҳбарларга ваколатлар бериши, уларга имкониятлар бериш, таклифларидан фойдаланиш, уларга ишониш ва уларнинг ҳаракат режаларини амалга оширишга боғлиқ булади. Буларга мос равишда раҳбарнинг ўзини тутишининг турт хил усули мавжуд:

- 1) Автокрatik.
- 2) Бюрократик.
- 3) Демократик.
- 4) Аристократик.

Автокрatik усул раҳбар ўз ғояларини (кидириб топган ғояларни), режаларни ҳеч ким билан маслаҳатлашмасдан амалга ошириши билан характерланади. Ўз фикрини буйруқ билан амалга оширади.

Бюрократик усулда бошқарув расмий тус олади инструкциялар, буйруқлар, қўлланмалар, қоғозлар билан ишланади.

Демократик усул раҳбар ва жамоани ўз-ўзини бошқариш фаолиятининг оптимал муносабатига асосланган. Унинг хусусияти - бажарувчиларнинг режаларни тузиш ва амалга ошириш жараёнида фаол катнашадилар. Раҳбар томонидан ўз қўл остидагиларга ишонч билдирилиши ва уларни руҳлантириши натижасида юқори даражада унумдорликга эришилади.

Ходимларига «Буни биз ўзимиз амалга оширдик» дейиш имконини берадиган раҳбар энг яхши раҳбардир.

Ўқув-тарбия жараёнини амалга оширишда демократик усул, юқори ташкўютларнинг директив буйруқларини амалга оширишда автокрatik, ҳисоб ва ҳисобот масалаларида бюрократик усулдан фойдаланиш яхши натижалар беради.

Раҳбар ва ҳокимлик.

Раҳбарга мансаб вазифаларини бажаришда ҳокимлик зарур бўлади. таъсир этиш воситаси сифатида ҳокимлик беш хил булади:

1. Қўрқитиш орқали таъсир этишга асосланган ҳокимлик. Ишни йўқотиш, хизмат мансабидан тушириш, мукофотни йўқотиш ва х.к. лар билан қўрқитиш.

2. Мукофотлашга асосланган ҳокимлик қўл остидагилар эҳтиёжларини кониктириш орқали таъсир қилиш.

3. Эксперт ҳокимлик. Бажарувчиларни раҳбарга ишонишлари орқали амалга оширилади. Бажарувчилар ўз раҳбарларига сўзсиз ишонадилар, у энг оптимал қарорни қабул қилади, муаммони ҳал қилади. Врач билан бемор ўртасида, ўқитувчи билан талаба ўртасида шундай ҳокимлик мавжуддир.

4. Эталон ҳокимлик (ўрناق кўрсатиш) -- раҳбарнинг шахсий хусусиятларига асосланган таъсирдир. Ходимлар раҳбарларига ўхшашга ҳаракат қиладилар. Бундай раҳбар бўлиш учун куйидаги маслаҳатларга амал килинг:

1. Сизни барча коллектив аъзолари диққат билан кўзатиб турганликларини эсдан чиқарманг.
2. Ўзингизда йулбошчилик сифатларини ривожлантиринг.
3. Зарарли одатлардаи кўтилишга ҳаракат килинг.
4. Нутқингизни кўзатиб боринг.
5. Ўз қарорларингизда муҳим булинг, кетма-кетликга риоя килинг.
6. Ташки курунишингизни тартибга солинг.
7. Қўл остингиздагиларни ўзингизга кизиктиринг.
8. Қўл остингиздагилар фикри билан ҳисоблашинг.
9. Қонуний ҳокимият (анъанавий ҳокимият) раҳбариятга буйсуниш анъанасига асосланган. Бу тарихий шаклланган муносабатлар усулидир. Бу усулда бажарувчи ходим раҳбар ходимга эмас, балки маълум мансабга буйсунади. Бу раҳбарни ўз қўл остидагиларга таъсир кўрсатишнинг энг қўлай усулидир. Аммо, ўзгаришлар вақтида бу усул самара бермайди.

Ҳозирги босқичда таълим ва тарбияда новаторлик ёндашуви жадал ривожланаётганлиги таълим муассасаси фаолиятининг ўзига хос хусусиятлардандир.

Янгича шароитларда «таълим» тушунчаси мазмунини тубдан қайта идрок этиш зарур. Бу узлуксиз таълимнинг ўхшаш тизими ёрдамида ижтимоий ва касбий мослашган яхлит шахс мазмунининг мақсади, вазифалари, методлари ва воситаларини шакллантиришни қайта идрок этишни билдиради.

Шу муносабат билан билимлар ва ҳаётга «таълим» тушунчасини шахс

ташаббусининг аҳамиятини таъкидлайдиган тарзда ёндашув сифатида тушуниш лозим. Шу боис «таълим» тушунчаси бу тез ўзгарувчан дунёда яшаш учун зарур бўлган янги методологик усуллар, кўникмалар, кўрсатмалар ва кадриятларни ўз ичига олиши керак. Бошқача айтганда, таълим шахсий ва ижтимоий хусусиятга эга янги вазиятларни муваффақиятли удалай олиши учун ҳаракатланувчи жамият томонидан прогноз қилинган зарур ижтимоий-ахлоқий жараён дир.

Анъанавий тарзда вужудга келган таълим тизими стратегик жиҳатдан йўл қўйиб бўлмайдиган «қўллаб-қувватловчи» таълим функциясини бажарган ҳолда «таълим» сўзининг янги талқинига оид мақсадли кўрсатмаларни амалга оширишга йўналтирилмаган.

Кўмаклашувчи таълим фақат ижтимоий муносабатлар ва шахсий йўналишларнинг мавжуд тизимини сақлашга, яъни консерватив-барқарор жамиятнинг нормал фаолият юритишига йўналтирилган. Шу боис бунда шахс аллақачон маълум бўлган, такрорланувчи вазиятлардан чиқа олиши учун мўлжалланган, қайд қилинган усуллар ва қоидалар устунлик қилади.

Узлуксиз таълим тизими қарор топиши ва ривожланишининг янги стратегияси, «таълим» сўзининг қайта идрок этилиши «қўллаб-қувватловчи» таълимни «инновацион» таълим билан алмаштиришни талаб қилади. Инновацион таълим айти пайтда камида қуйидаги иккита вазифани ҳал этишга қаратилган:

1. Воқеаларни «олдиндан кўра билиш», ўзини реал воқеликда ва кейинги ижтимоий ва касбий ролини англаб этиш қобилиятини таркиб топтириш; шахсни онгли, олдиндан англаб етилган муқобилларни — умумий хулқ-атвори, ишонч-эътиқодни, ахлоқий кадриятларни, умуман дунёқарашни танлашга йўналтириш.

2. Маҳаллий (шахсий йўналтирилган) ташкилий-бошқарув даражасидан тортиб глобал даражасигача шахсга ижтимоий аҳамиятга ҳамда касбий қимматга эга бўлган муҳим қарорларни қабул қилиш жараёнида фаол иштирок этиш имконини берувчи «қатнашиш» принципини рўёбга чиқариш.

Бошқарув ва ташкил этишнинг янги тузилмасини шакллантириш, КТМД ва КТММ асосида таълимни таъминлаш, чет эл тажрибасини ўзлаштириш, турли технологиялар, методикалар ва ҳоказоларни жорий қилиш — буларнинг ҳаммаси инновация деб номланган жараён билан боқлик.

Бундай ҳодисанинг сабабини таълим тизими ходимлари таълим-касб-хунар дастурлари ва методикаларининг хилма-хил вариантларини амалга ошириш учун кенг имкониятларга эга бўлганликлари билан изоҳлаш мумкин.

Бошқа сабаби — жамиятдаги ижтимоий вазият ўзгариб бораётганида, демократлаштирилаётгани ва инсонпарварлаштирилаётганида, мамлакат иқтисодиёти бозор муносабатлари йўлидан ривожланишга ўтаётганидадир. Юқори малакали мутахассисларга эҳтиёж сезаётган ишлаб чиқаришнинг талаблари ошиб бораётгани ҳам янгиликларни ўзлаштиришни тақозо қилмоқда. Бугунги кунда рақобатбардош кадрларни тайёрлаш мамлакатимиз таълим тизимини дунё таълим тизими билан мувофиқ ҳолга келтириш йўллари билан бири сифатида кўриб чиқилмоқда.

Рақобатбардош малакали кадрларнинг энг муҳим сифатлари орасида

қуйидагиларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

— ўқувдаги ўзлаштиришнинг юқори даражаси ва ўзини ўзи ривожлантиришга қодирлиги;

— меҳнат ва таълим хизматлари бозорида тегишли таълим муассасасида олинган малакани тасдиқлаш;

— ишлаб чиқаришда юқори даражадаги ижтимоий фаоллик ва меҳнат унумдорлиги;

— ишлаб чиқаришда интизомлилик, масъулият, ихтирочилик, ижодкорлик;

— ўқув фанлари бўйича олимпиадалар ҳамда танланган касб маҳорати танловларида қатнашиш ва ғолиб чиқиш;

— таълимни давом эттиришга эҳтиёж.

Таълим муассасасининг айнан шундай хислатларга эга бўлган битирувчиси қўйилган талабларга мувофиқ маҳсулот тайёрлаши ёки хизмат кўрсатиши мумкин.

Таълим муассасалари, ҳар томонлама етук шахсни шакллантириш учун, ривожланиш йўлидан бориши керак. Аксарият амалиётчи ходимлар буни англаб етган ҳолда, эскича ёндашувларни такомиллаштиришни эмас, балки таълим тизимини инновацион стратегия руҳида ривожлантиришни тан олмақдалар. Ёш авлод таълим-тарбиясидаги инновацион ҳаракат жамиятдаги реал ўзгаришларни ва шахс эҳтиёжини ҳисобга олишга йўналтирилган.

Инновацион таълим стратегияси таълим сифатини бошқаришда алоҳида бошқарувчилик ёндашувини такозо этади. Қуйидагилар бундай бошқарувнинг асосий объектлари ҳисобланади:

— педагог мутахассис, фуқаро шахсини шакллантириш ва ривожлантиришда профессионал ташкилотчи ҳамда ёрдамчи сифатида;

— таълимнинг мазмуний негизи;

— педагогик жараёни ташкил этиш технологияси ва бошқалар.

Илмий-педагогик адабиётларда ҳамда таълим ва тарбия амалиётида «инновация» сўзи қандай тушунилади?

Мамлакатимизда ва хорижда ўтказилган бир қатор тадқиқотлар ушбу ходисани ўрганишга бағишланган. Масалан, айрим муаллифлар «янгиликлар яратиш, уларнинг педагоглар томонидан ўзлаштирилиши ва таълим амалиётида фойдаланилиши жараёнлари»ни (Н. Юсуфбеков) инновацион жараёнлар деб ҳисоблашни таклиф қилмоқдалар. Улар инновацияни, жамият маданий ўзгаришларининг негизи сифатида кўриб чиқмоқдалар-ки, бу бизнингча, жуда қимматлидир.

Бошқалар эса «педагогик тизимнинг тартибга солинмайдиган эркин майдонида ривожланиш истиқболига оид эҳтиёжга таъсирчанлиги асосида вужудга келган янгиликлар унинг микроэволюциялар фондини ташкил этади», деб ҳисобламоқдалар (В. Н. Виноградов).

Учинчи тоифа муаллифлар янгиликни анча мураккаб хусусият, деб ҳисоблайдилар. Уни ўрганиш учун абстракт хусусиятларга назариясини жалб этиш тавсия қилинади-ки, бу назария кўплаб тавсифли хусусиятларни улар шкаласининг координата ўлчовлари сифатида кўриб чиқади (М. С. Бургин).

Айрим олимлар янги мақсадларни, методларни, методикани, дастурларни, воситаларни, мазмунни, фаолиятни ташкил этиш шакллари,

бошқарув турларини ва бошқаларни янгилик сифатида талқин қилмоқдалар.

«Янгиликлар — янги ҳодиса, янги одат, янги метод, ихтиро», — деган таъриф ҳам мавжуд (Ю. Красовский).

«Мактабни ривожлантириш — инновацион жараён» номли китоб муаллифлари таъкидлаб ўтганларидек: «Педагогик инноватика — таълим муассасасини ривожлантиришнинг янги таълим амалиётини яратиш билан боғлиқ жараёнларини ўрганадиган фан соҳаси. Бу жараёнлар инновацион жараёнлар деб номланади» (С. Г. Хомерики, М. М. Поташник, А. В. Лоренсов). Бундай аниқлик таълим тизими ходимларига муайян фойда келтириши мумкин.

Шундай қилиб, таълимда инновациялар янги жараёнлар, концепциялар, таълим технологияларини яратиш ва ўзлаштиришни кўзда тутуди ва ҳ. к.

Аммо, амалиёт кўрсатишича, инновацион фаолият таълим тизимининг ҳамма ходимлари томонидан ҳам тўғри тушунилавермайди ва самарали амалга оширилавермайди. П. Шедровицкий таъкидлаб ўтганидек, «инновацияликни бугунги кунда мавжуд бўлган биронта ҳам функциясини инновациянинг такрорлаш, чиқиш деб номлаш мумкин бўлган нарсани таъминлай олмайди. Таълим ва кадрлар тайёрлаш соҳасидаги айрим инновация эмас, балки умуман инновацион ҳаракат кўриб чиқиш ва таҳлил қилишнинг бошланғич параметри бўлиши керак». У «педагогик ёки таълим инновацияларини» эмас, балки «инновацион стратегияни», «фаолиятни инновацион ташкил этиш»ни аниқроқ деб ҳисоблашни кўзда тутуди. Биз инновацияни бундай талқин қилиш тадқиқотчиларга бу жараённи кенгрок ва чуқуррок кўриб чиқиш имкониятини яратади, деб ҳисоблаймиз.

Инновацияларнинг ўзига хос хусусияти нималардан иборат?

«Янгилик киритишнинг моҳиятини инновацион фаолият, яъни янги натижаларга, уларни олиш воситалари ва усулларига эришиш, анъанавий фаолиятнинг эскирган таркибий қисмларини бартараф этиш бўйича фаолият ташкил этади», — деб таъкидлайди Д. М. Гвишиани. Олим инновацион фаолиятнинг радикал ва такомиллаштирилувчи турлари ўртасидаги зиддиятли хусусиятига эътиборни қаратади. Такومиллаштириш мавжуд ташкилий тузилмаларга зид эмаслиги ва уларга мақбул мослашиши амалиётдан маълум. Туб янгиликлар эса уларни парчалайди, шунинг учун кескин қаршиликка учрайди. Таълим сифатини бошқариш жараёни ташкилотчилари инновацияларнинг бундай муҳим хусусиятини доимо эътиборда тутишлари керак.

Янгилик киритиш жараёнининг муҳим хусусиятини таъкидлаб ўтамиз — инновация ушбу таълим муассасаси долзарб вазифаларни самарали ҳал қилишга кўмаклашиши керак. Афсуски, аксарият таълим ходимлари амалда бунга етарли эътибор бермайдилар, натижада янгиликларнинг ўзлаштирилиши расмиятчиликка айланади.

М. М. Поташник инновацияларнинг бошқа муҳим хусусияти — янгиликлар таълим муассасасини ривожлантириш вазифасини ҳал қилиш имконини бериши деб ҳисоблайди. Бошқача айтганда, инновациялар «мода» учун ва «қизғин» тадқиқотчилик фаолияти олиб борилаётганини кўрсатиш учун эмас, балки ўқувчилар фойдасини кўзлаб киритилади.

Бошқарув ходимлари ва педагоглар муайян шарт-шароитлар мавжуд

бўлгандагина янгиликларни самарали ўзлаштириш мумкинлигини англаб етишлари жуда муҳим. Бунга биринчи навбатда қуйидагилар киради:

— таълим жараёни қатнашчиларининг фаол ишчанлиги босқичма-босқич шакллантирилишига риоя этиш;

— таълим жараёнининг барча қатнашчилари томонидан ўзлаштириш мақсадларининг чуқур англаб етилиши ва қабул қилиниши ҳамда келгуси фаолият вазифалари аниқ тушуниб олинishi;

— бунда ушбу вазифаларнинг шахсий мақсадларга зид бўлган қисмининг ҳар доим юзага келадиган қаршилик кўрсатиш омилини ҳисобга олиш;

— фикр алмашиш аниқ ва холис ахборот айирбошлаш;

— амалий қарорларни жамоа бўлиб ишлаб чиқиш ва қабул қилиш.

Педагогик кадрларни жиддий қайта тайёрламасдан, таълим муассасасини тегишли моддий-техника базаси, молиявий, ўқув-дастурий таъминламасдан туриб инновацион фаолиятни самарали ташкил этиб бўлмайди.

Янгиликларни ўзлаштириш жараёни раҳбарият томонидан мажбурлаш чораси билан эмас, балки ходимларга ҳаракат қилишда мустақил ва эркин иш олиб бориш имкониятини бериш билан кечади. Педагоглар жамоасининг ишига аниқлик олиб кириш имконини берадиган кўрсаткичлар ва мезонларнинг объектив рўйхатини олдиндан ишлаб чиқиш, уларга бебаҳо ёрдам бериши мумкин.

Педагогик тадқиқотларда инновациялар янгилигини аниқлашга катта эътибор берилади. Киритилаётган янгиликлар аломатларининг вариантларидан бирини келтирамиз (П. Шедровицкий):

— бошқача кўринишда маълум бўлган тузилиш (биринчи даража);

— маълум нарсани унча муҳим бўлмаган ўзгаришлар билан такрорлаш (иккинчи даража);

— маълум нарсани аниқлаш, конкретлаштириш (учинчи даража);

— маълум нарсани муҳим элементлар билан тўлдириш (тўртинчи даража);

— сифат жиҳатидан янги объектни ташкил этиш (бешинчи даража).

Таълим муассасасида уни тизимли ташкил этиш янгиликларни ўзлаштиришнинг яна бир ўзига хос хусусиятидир. Бунда қуйидагилар муҳим таркибий қисмлар ҳисобланади:

— таълим муассасасининг вазифаси, унинг янги мақсадлари ва вазифалари;

— бошқарув ходимлари ва педагоглар шахси, уларнинг ўзларига ва таълим олувчиларга нисбатан нуқтаи назари;

— ўқувчи шахси;

— ўқувчилар ўзлаштираётган билимлар функцияси, тузилмаси;

— таълим технологияси ва воситалари;

— ташкилий тузилма, педагогик меҳнат маданияти ва бошқалар.

Янгиликларни ишлаб чиқиш ва ўзлаштириш жараёнини ҳар қандай таълим муассасасини ривожлантириш йўли сифатида кўриб чиққан ҳолда киритилаётган янгиликлардан кутилаётган натижаларни баҳолашнинг қуйидаги асосий мезонларини ажратиб кўрсатамиз:

1. Натижалар таълим муассасасининг аввалги ёки ушбу йўналишдаги таълим муассасалари учун хос бўлган натижалардан юқори, шунингдек мақбул бўлиши керак.

2. Режалаштирилган натижаларни олишга сарфланадиган вақт намунавий ёхуд меъёрий сарфланадиганига нисбатан камроқ ёки уларга тенг бўлиши керак.

Янгилик даражасини аниқлаш учун барчага маълум алгоритмлардан фойдаланилади. Масалан, қуйидагича ёндашув мавжуд:

1. Баҳоланаётган объектнинг муҳим кўрсаткичлари, аломатлари, мезонлари ажратиб олинади.

2. Қиёслаш учун унга ўхшашлари, унинг прототиплари танлаб олинади.

3. Баҳоланаётган объект танлаб олинган ўхшаш объектлар билан қиёсланади ва мезонларга мувофиқ янгилик ўлчови ҳам миқдорий, ҳам сифат жиҳатидан белгиланади.

Юқорида баён қилинганлар асосида таълимни бошқариш сифатини янгилик ҳамда бошқарув фаолиятининг янги йўналиши сифатида кўриб чиқамиз.

Янгиликларнинг келтирилган таснифига мувофиқ таълим сифатини бошқаришни биз тўртинчи даражага, яъни таълим тизимидаги бошқарув фаолиятининг мавжуд назарияси ва амалиётини муҳим элементлар билан тўлдиришга киритамиз.

Келтирилган ушбу таъриф мазмунан тегишлича тўлдирилиши ва тузилмаларга ажратилиши лозим, деб ҳисоблаймиз. Биз ишлаб чиққан тузилмадаги ушбу қўшимчаларнинг моҳияти қуйидагилардан иборат.

Биринчи. Таълим сифатини бошқариш мақсади нафақат жамоа фаолияти натижаларини барқарор ҳолатда сақлашдан, балки таълим муассасасини фаолият (ривожланиш)нинг бундан ҳам юқорироқ даражасига ўтказиш орқали талаб қилинаётган таълим сифатини таъминлашдан иборат.

Иккинчи. Натижалар сифати битирувчиларнинг ижтимоий ва таълим-касб-ҳунар бобидаги ҳаракатчанлиги даражаси билан ифодаланади, яъни бунда гап таълим муассасаси раҳбарларининг мавжуд малака тавсифларини мутахассиснинг касбий сифатларига қўйиладиган талаблар билан тўлдирилишига йўналтириш ҳақида бормоқда.

Бошқа лойиҳада ҳам шундай ғоя мавжуд. Инновациянинг энг муҳим формулаларидан бири қуйидаги қоидадан иборат: «Таълим сифати — шунчаки билимлар ҳажми ва кўникмалар таркиби эмас, балки замонавий мутахассиснинг асосий моделини ташкил этувчи фаолиятнинг муайян турларига шайлик демакдир».

Таълим сифати ўқувчиларни билимга бойитиш ва уларнинг онгида статистик тузилмасини шакллантириш билан эмас, балки ижтимоий ва касбий фаолиятда улар ҳаётини органик динамика билан таъминлаш орқали тавсифланади. Билимлардан конкрет муаммоларни ҳал қилишда фойдаланиш, билимларни доимий равишда тўлдириб бориш бўйича ривожланган қобилият ва интеллектуал ривожланишнинг амалдаги рағбатлари зарур (И. Г. Леонов).

Учинчи. Таълим сифатини бошқаришда таълим муассасаси

раҳбарларининг асосий эътибори педагоглар ва ўқувчилар фаолиятини назорат қилиш функцияларини кучайтиришга эмас, балки камчиликлар пайдо бўлишининг олдини олиш ҳамда уларнинг вужудга келиш манбалари ва сабабларини таҳлил қилишга қаратилади. Буларнинг ҳаммаси бошқарув кадрларидан илмий-педагогик тадқиқотларнинг метод ва усулларини эгаллаш, назарий қоидаларни амалиётда қўллаш маҳоратини талаб қилади. Бошқача айтганда, улар бошқарувда хилма-хил — интуитив, эмпирик, тажриба, формал ва илмий мантиқий ёндашувлардан фойдаланишлари даркор (М. М. Поташник).

Тўртинчи. Таълим сифатини бошқариш ушбу жараёнга таълим жараёнининг барча қатнашчиларини киритишни кўзда тутди. Фақат шартли шуки, ташкилий тузилма педагогик жараён қатнашчилари ўртасидаги қатъий «вертикал» алоқалардан «вертикал» билан «горизонтал» алоқаларни бири-бирига уйғун ҳолда қовуштиришга ўтсагина шундай бўлади.

Масалан, куйида келтирилган ўрта махсус, касб-хунар таълими сифатини бошқариш моделида бу — коллеж ички бошқарув тузилмасининг марказий-симметрик модели ҳисобланади. Бундай ташкилий тузилмада раҳбарларнинг ҳам, педагогларнинг ҳам онги «истисносиз барча бўлинмаларни пировард мақсадга эришишга йўналтириш» фойдасига ўзгаради (К. Березняк). Бунда директор ва унинг ўринбосарларининг функционал вазифалари ҳам ўзгаради.

Бешинчи. Таълим сифатини бошқариш тизимли методлардан фойдаланишни кўзда тутди, бунда бошқарув объекти бошқача хусусиятга эга бўлади: ... таълимни инновацион ташкил этишда фаолиятнинг икки (таълим берувчи билан ўқув-билиш) тури эмас, балки яхлит ҳолдаги ўқув-касбий вазият бошқарув бирлиги ҳисобланади (И. Богачек).

Бир гуруҳ олимлар (О. Г. Хомеики, М. М. Поташник, А. В. Лоренцев) таклиф қилган методдан фойдаланган ҳолда таълим сифатини бошқариш жараёнининг таснифини кўриб чиқамиз.

1. Инновациялар кўламлилигига қараб белгиланади. Бунда таълим сифатини коллеж ички ёки мактаб ички доирасида бошқариш бутун таълим муассасасини қамраб оладиган тизимли янгилик ҳисобланади.

2. Янгиликларни ўзлаштириш жараёни салоҳият даражасига қараб белгиланади. Таълим муассасаси доирасидаги ички бошқарув инновациянинг комбинаторли типидан иборат, яъни илгари маълум бўлмаган элементларнинг ташкилий тузилманинг янги модели асосида янгича конструктив қўшилиши ҳамда илгари бундай қўшиб фойдаланилмаган принципларнинг амалга оширилиши содир бўлади.

3. Янгиликнинг ўз ўтмишдошига муносабати уларнинг куйидаги тоифасини тавсифлайди. Таълим муассасаси даражасида сифатни бошқаришга нисбатан олганда айтиш мумкинки, у бошқарув фаолиятининг шу пайтгача амал қилиб келган моҳиятини ўзгартиради ва тўлдирди. Бу жараён икки босқичдан иборат:

— биринчиси — битирувчиларни тайёрлаш даражасига қўйилдиган номинал, норматив талабларнинг бажарилишига қатъий ва тўлиқ йўналтириш мавжуд бўлган шароитда таълим муассасасининг фаолияти сифатини бошқариш. Бошқарув назариясида бундай ёндашув консерватив

ёндашув ҳисобланади (Н. А. Селезнева);

— иккинчи босқич — ривожланиш сифатини бошқариш. Бунда ўзгартирувчи-ижодий, тадқиқот хусусиятига эга фаолиятни амалга ошириш, янгиликларни ўзлаштириш, ўз илғор педагогик технологияларини яратиш кўзда тутилади.

Таълим муассасаси барча ходимларининг биргаликда ҳаракат иши бирига мувофиқ бўлишига эришиш ва ташкилий маданият бундай бошқарув самарадорлигининг зарур шarti бўлиб қолиши керак.

Инновацион жараён бўлган таълим сифатини бошқариш қуйидаги белгиларга эга:

Биринчи белги. Фаолиятнинг янги усули мавжудлиги.

Таълим сифатини бошқариш, энг аввало, бошқарув кадрлари томонидан таълим ва кадрлар тайёрлаш жараёнини кузатиш каби фаолият туридан фойдаланишни кўзда тутди. Бунинг учун улар тегишли методларни, жумладан, квалиметрия асосларини, яъни сифатни миқдорий баҳолаш методини қўллаш орқали таълим сифатининг бошланғич ва берилган ҳолатини аниқ белгилашлари лозим бўлади. Илмий адабиётларда маҳсулот, хизматлар сифатини баҳолаш, бошқарув фаолиятининг баҳолаш объекти тўғрисида кадрият борасидаги мулоҳазаларни шакллантиришга қаратилган функциясининг алоҳида типига киритилади.

Таълим сифатини ўлчаш сифат ўлчовини белгилаш ва унинг қийматини махсус алгоритмлар ёрдамида олишни кўзда тутди.

Бундай жараённинг самарадорлиги баҳолашнинг статистик методларини қўллаш орқали таъминланади. Бу баҳоланаётган объектнинг сифат кўрсаткичлари қиймати аксарият ҳолларда тасодифий катталиклар деб ҳисобланиши билан боғлиқдир. Бундай ҳолат ана шу сифатга бевосита ёки билвосита таъсир кўрсатувчи кўплаб омиллар ва шарт-шароитлар билан изоҳланади. Шу боис бошқарув таркиби таълим сифати ҳақидаги ахборотни олиш ва ишлашнинг статистик методларини қўллай билиши керак.

Иккинчи белги. Ривожланган ташкилий маданиятнинг мавжудлиги.

Олдинги параграфда таъкидлаб ўтилганидек, жамоада меъёрлар тизимларини, кадриятларни, урф-одатлар ва анъаналарни юқори даражада шакллантирмасдан туриб, таълим сифатини бошқариб бўлмайди. Буларнинг ҳаммаси таълим жараёнининг барча қатнашчилари ўртасида уйғун ўзаро муносабатни вужудга келтириш имконини беради.

Ташкилий маданият таълим муассасасининг энг муҳим қуйидаги вазифаларини функционал жиҳатдан ҳал қилишда ёрдам беради:

— мувофиқлаштириш — белгиланган жараёнлар ва хатти-ҳаракат қоидалари ёрдамида амалга оширилади, бу жамоа барча аъзоларининг келишилган ҳолда ҳаракат қилиши имконини беради;

— мотивация — бажарилаётган иш мазмуни таълим муассасаси раҳбари томонидан тушунтириб берилишини кўзда тутди;

— ихтисослаштириш — таълим муассасасининг шунга ўхшаш таълим муассасаларидан характерли фарққа эга бўлиши демакдир;

— кадрларни жалб қилиш — таълим муассасасининг бошқаларидан афзаллигини тарғиб қилиш, педагогларнинг ишлаши учун мақбул шарт-шароит яратиш орқали ҳал қилинади ва ҳ. к. (К. Шольц).

Учинчи белги. Таълим муассасаси раҳбарларида инновацион маданиятнинг шаклланганлиги.

Бу уларнинг янги билимлар ва фаолият турларини эгаллашга, ўзгаришларга, хавф-хатарга ва жавобгарликка тайёргарлигини билдиради.

Бошқариш соҳасидаги турли мутахассисларнинг фикр-мулоҳазаларини таҳлил қилиш янги типдаги менежер шахсининг энг муҳим сифатларини, хусусан, меҳнат жамоаси билан мақбул муносабатда бўла билиш маҳоратини ажратиш имконини беради. Янги типдаги бошқарув кадрларининг асосий вазифаси — «Янгиликлар киритишга йўналтирилган бошқарув муносабатларининг мос тизимини яратиш»дан иборатдир (Ю. Красовский). Таълим муассасаси раҳбарлари томонидан янги ташкилий-психологик маданият маъносидаги касбий маҳоратни ошириб боришнинг қуйидаги объектив даврларининг ўзлаштирилишини ҳам шунга киритиш мумкин:

— ўз имкониятлари билан жамоа имкониятларини ўрганиш;

— ўз муваффақиятлари ва муваффақиятсизликлари орқали жамоа имкониятларини билиш;

— жамоа имкониятларидан ўз касбий маҳоратини ошириб бориш учун фойдаланиш;

— жамоа имкониятларини ўзида ва ўзи орқали рўёбга чиқариш.

Бошқарув кадрларининг педагоглар ва ўқувчиларнинг ҳар қандай фойдали ташаббусини қўллаб-қувватлашга ва ўзлари ҳам шу ишга қўшилишга қодирликларини ҳам инновацион белги деб ҳисоблаш мумкин. Таваккалчилик ва масъулият таълим сифатини бошқаришда бошқарув кадрларининг, айниқса, етакчининг муҳим хусусиятларидандир.

Таълим муассасаси раҳбарларининг касбий билимдонлиги новатор негизини ташкил қилади. Директор ва унинг ўринбосарларининг касбий билимлари нечоғли даражада эканлигига кўп жиҳатдан инновацион фаолиятнинг муваффақияти бошқарув назарияси, иқтисодиёт ва социология, сиёсатшунослик ва ҳуқуқ, педагогика ва психология, гигиена ва физиология соҳаларига боғлиқ. Замонавий мутахассис шахсига, муҳандис-педагоглар таркиби фаолиятини ва ўқувчиларнинг ўқишини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятига оид норматив талабларни билиш ҳам ушбу рўйхатга тўлиқ киради. Бунда замонавий таълим муассасаларини бошқараётган шахсларнинг касбий-ташкилий, ахлоқий-психологик сифатлари биринчи ўринга чиқади.

Тўртинчи белги. Таълим муассасаси бошқарув корпуси психологик-педагогик маданиятининг юқори даражадалиги.

Бундай сифатнинг шаклланганлиги таълим сифатини таъминлашга доир фаолиятни лойиҳалаштиришнинг зарур шартидир. Таълим сифати ва таълим муассасасини бошқаришнинг асосий функцияларини амалга ошириш учун раҳбарлар конкрет маҳорат ва кўникмаларни эгаллашлари зарур. Биз психологик-педагогик маҳоратни, энг аввало, шулар қаторига киритамиз. Уларнинг моҳияти, П. Т. Фролов таъкидлаб ўтганидек, топшириқни онгли заруратга, фаолиятнинг ички эҳтиёжига айлантириш мақсадида мантиқий ва психологик усуллар ёрдамида ходимларга таъсир кўрсатишдан иборатдир» (П. Т. Фролов).

Кўрсатма-методик характердаги маҳорат ҳам энг муҳим аҳамият касб этади. Булар таркибига қуйидаги элементлар киради:

— педагогик, бошқарув фаолияти мақсадларини таърифлаш;
— унинг натижаларини таҳлил қилиш ва баҳолаш;
— таълим сифатини бошқаришни ташкил этишда педагогик метод ва усуллардан оқилона фойдаланиш;

— ходимларга малакали ёрдам кўрсатиш;
— илмий конференциялар, семинарларни ташкил қилиш ва уларнинг ишида қатнашиш;

— раҳбарнинг жамоатчилик фикрини вужудга келтириш, ижтимоий фаолликни рағбатлантириш, масъулият ҳиссини тарбиялаш орқали муҳандис-педагог ходимларга таъсир кўрсатиш маҳорати.

Таълим муассасаси раҳбарлари педагогларга, ўқувчиларга ва уларнинг ота-оналарига ягона педагогик талабларни қўйишлари керак. Бунда ҳар бир ходимнинг индивидуал имкониятларини ҳисобга олиш ва чуқур ўрганиш, жамоа олдида турган вазифаларни ҳал қилишда ҳар кимнинг ролини кўрсатишга катта ўрин берилади.

Бешинчи белги. Таълим муассасасида ўз ишини ўзи уюштиришнинг юқори даражаси.

Таълим муассасасининг ўзини ўзи ривожлантириши бошқарув кадрларининг педагоглар жамоаси билан биргаликда ташқи таъсирларни идрок этиш ва ички қарама-қаршиликларни бартараф қилиш асосида таъминланади. Таълим сифатини бошқаришда раҳбарларнинг асосий эътибори педагог ходимларнинг қобилиятлари ва имкониятларини тўлиқроқ очишга, зарур мустақилликни беришга ва педагогларга нисбатан кераксиз васийликни бартараф этишга қаратилади. Буларнинг ҳаммаси муҳандис-педагог ходимлар ва таълим олувчиларнинг ўзишини уюштириши имконини беради. Ходимларнинг юксак касбий маҳорати ўзишини ўзи уюштириши даражасига катта таъсир кўрсатади (И. Каору).

Шундай қилиб, таълим сифатини бошқаришнинг ишлаб чиқиладиган ва фойдаланиладиган тизими инновациянинг асосий белгиларини қаноатлантириши керак.

Аммо бунда таълим муассасасидаги бошқарув фаолияти умумий хусусиятга эга бўлган қуйидаги қонуниятларни ҳам акс эттиришини таъкидлаб ўтиш зарур:

- бошқарув тизими билан педагогик жараённинг бирлиги;
- марказлаштириш билан марказлашувдан чиқаришнинг уйғунлиги;
- бошқарилувчи ва бошқарувчи тизимларнинг нисбатдорлиги.

Таълим сифатини бошқариш жараёнини лойихалаштириш

Таълим муассасаларида бошқарув фаолияти муаммоларини олдиндан концептуал тарзда ишлаб чиқиш таълим сифатини бошқариш тизимини лойихалаштиришнинг инвариант асосга эга бўлган жараёнини кўриб чиқишга ўтиш имконини берди. Бу турли таълим муассасаларида ундан фойдаланиш имконини яратди.

Энг аввало, ҳар бир конкрет ҳолда бошқарув жараёнига ва унинг яқунларига ишнинг мавжуд реал аҳвол, таълим муассасаси ҳаёт фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари, унинг раҳбарларининг индивидуал

фазилатлари ва бошқа омиллар катта таъсир кўрсатиши мумкинлигини таъкидлаб ўтамиз. Шу боис таълим сифатини бошқаришни тизимли ёндашув асосида лойиҳалаштириш йўллари кўриб чиққан ҳолда, бошқарув таркибининг стандарт, қатъий тартибга солинган ҳаракат дастурини бермасликка интиламиз.

Бизнингча, таълим муассасаси бошқарув ходимининг эътиборини «таълим муассасасида таълим сифатини бошқариш тизимини таҳлил қилишнинг морфологик, таркибий, функционал жиҳатларини, бошқарув жараёнларининг етакчи йўналишларини, уларни амалга ошириш шакллари ва усулларини эгаллашга қаратиш муҳимдир.

Таълим сифатини бошқариш жараёнини тадқиқ қилишнинг морфологик жиҳати уни таркибий қисмларга, элементларга ажратишни ҳамда асосий хусусиятлари ва сифатларини тегишли равишда ҳам миқдор, ҳам сифат жиҳатидан тавсифлашни кўзда тутди. Бунда, энг аввало, зикр этилган тизим сифатини ва унинг яхлитлигини белгиловчи омилларни ҳисобга олиш муҳимдир.

Объектни шу тарзда ўрганишнинг асосий воситаси декомпозиция методи ҳисобланади.

Тизимли таҳлил схемасига мувофиқ, тадқиқот предмети морфологик тавсифлангандан кейин унинг таркибий таҳлили бажарилади. Раҳбар ушбу босқичда қисмлар ва элементларнинг ўзаро алоқалари ва муносабатларини аниқлайди ва интегротив натижани белгилайди.

Тузилмани тавсифлаш учун таълим сифатини бошқариш жараёнининг мақсадлари ва пировард натижасини аниқ тасаввур этиш, уни ташкил қилувчиларни ажратиш, уларни барча ўзаро алоқаларда тадқиқ қилиш, бошқарув сифатини ўзгартиришдаги ролини кўрсатиш керак. Бошқарув ходими, таълим сифатини бошқариш тузилмасини таҳил қилар экан, кучли ва заиф ўзаро алоқаларни, уларнинг тавсифий белгилари ва хоссаларини, таъсир кўрсатиш зарур бўлган алоқаларининг турларини аниқлайди, асосий муаммоларни белгилайди. Таълим сифати кўп жиҳатдан унинг тузилмасига боғлиқлигини эътибордан чиқармаслик керак.

Таълим муассасасида сифатни бошқариш тизимини функционал тадқиқ қилишда бошқарув ходими қандай қилиб тизим шундай ҳолга тушиб қолганлиги сабабларини аниқлайди. Бу ерда функцияларнинг ўзаро ҳаракатини аниқлаш, ушбу тизимдаги ана шу таркибий қисмларнинг ҳар бирининг, шунингдек, тизим барча элементларининг аҳамиятини белгилаш каби мураккаб вазифаларни ҳал қилиш лозим бўлади. Бунда элементлар ва кичик тизимлар ўз функционал вазифаларини бажараётган ёки бажармаётганлиги ҳамда уларнинг умуман тизимга қандай таъсир кўрсатаётганлиги аниқланади. Маълумки, битта бўлса-да, функционал алоқанинг йўқлиги, ўзаро алоқаларнинг бузилиши тизимнинг бузилишига олиб келади.

Таълим муассасасида сифатни бошқариш муаммосини генетик тадқиқ қилишда бошқарув ходими таълим сифатини бошқариш жараёнининг ўтмишдаги, бугунги кундаги ва келгуси ҳолати ўртасидаги алоқани аниқлайди. Тизимнинг айнан генетик хусусиятлари тизим ичидаги алоқаларни, шунингдек, унинг ташқи муҳит билан алоқасини шарт қилиб

кўяди.

Тизимли таҳлил қилиш технологияси анча мураккаб, аммо бошқаси ҳам аён. Тизимли таҳлил бошқарув фаолияти ҳолатини органик бирликда, таркибий қисмларининг алоқалари ва ўзаро алоқаларини билиш, ушбу ҳолат сабабларини объектив аниқлаш, кейинги ривожланиш истикболини кўриш имконини беради.

Таълим сифатини бошқаришда асосий эътибор лойиҳалаштириш фаолиятига берилади. Бу сифатни бошқариш методологияси томонидан кўзда тутилган — бунда сифат тадқиқ қилиш ва лойиҳалаштириш, ривожланиш дастурлари ва концепцияни ишлаб чиқиш босқичида қўйилиши керак.

Сифатни бошқариш соҳаси мутахассислари маҳсулот ёки хизматлар сифатини лойиҳалаштиришда устуворлик ишлаб чиқариш босқичига берилади, деб таъкидламоқдалар. Бунга тадқиқотлар, лойиҳалаштириш ва ишланмалар билан боғлиқ фаолият киради, яъни ушбу босқичларда сифат асосларига замин тайёрланади (А. Т. Куракин, И. Г. Леонов, Л. И. Новикова).

Тадқиқотлар ишлаб чиқариш (таълим) жараёнларига лойиҳалаштириш сифати кучли таъсир этишини кўрсатади. Педагогикага оид адабиётларда лойиҳалаштириш деганда бўлғуси ишларнинг тахминий вариантларини тузиш ва унинг натижаларини башорат қилиш тушунилади. Таълим муассасасида сифатни бошқаришнинг илмий ташкил этилиши лойиҳалаштириш босқичларини аниқ мақсадга йўналтирилган ҳолда ва батафсил ишлаб чиқишни кўзда тутди. Бунда сифатини ошириш, бунинг учун тегишли шакл ва методларни танлашга доир конкрет вазифалар ва чоратadbирларнинг асоси тарзда прогноз қилиниши ва белгиланиши назарда тутилади.

Бошқарув ходимлари фаолияти дастури «режали фаолиятнинг умумий стратегиясини белгилаб берадиган принциплар тизими» бўлмиш дастурли-мақсадли ёндашув асосида ишлаб чиқилади (А. Т. Куракин, Л. И. Новикова). Дастурли-мақсадли ёндашув аксарият тадқиқотчилар (В. Г. Афанасьев, Е. П. Голубков, Ю. А. Конаркевский, И. С. Ладенко, Г. А. Тульчинский, И. К. Шалаев ва бошқалар) томонидан тизимли ёндашувни аниқлаштириш сифатида кўриб чиқилмоқда. Масалан, бировлар ушбу ёндашувни бошқарув фаолиятига татбиқан пировард натижага йўналтирилган мақсадли дастурни ишлаб чиқиш сифатида тавсифлашса (И. С. Шалаев), бошқалар дастурларнинг шакллантирилишини бошқарув жараёнларининг режалаштирилишидан иборат деб ҳисоблашади (И. С. Ладенко, Г. Л. Тульчинский).

Назорат савол ва топшириқлар

1. Таълимни бошқариш тамойиллари ҳақида нималарни биласиз?
2. Раҳбарлик услуги ва хокимят шакллари ҳақида сўзлаб беринг?
3. Ишонтириш нима ва у нималарда кўринади?
4. Тушунтириш нима ва мотивлаш нима?
5. Таълим муассасаси раҳбарининг вазифаси нимадан иборат?
6. Таълимни бошқаришда назорат нима?

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Таълим менежменти. – Т.: Ворис-нашриёт, 2006. -259 б.
2. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т. Умумий ўрта таълим муассасаларини бошқаришда менежментнинг асосий тушунчалари. –Т.: Фан, 2006.
3. Валижонов Р. ва бошқ. Менежмент асослари. –Т.: Шарқ, 2002.
4. Перегудов Л.В., Саидов М.Х. Менежмент и экономика высшего образования. Ташкент, Молия, 2001.

8-Мавзу: Та'лим муассасаси раҳбарига қо'йилган талаблар

Reja:

1. Mudira maktabgacha ta'lim muassasining rahbari.
2. Mudira tashkilotchi, ma'muriyatchi, yuqori malakali pedagog.
3. Mudira tomonidan kadrlar bilan ish usullari. Tashkiliy pedagogik ishlarga rahbarligi.
4. Ota-onalar jamoatchiligi bilan ish uslublari.

Ta'lim faoliyati favqulodda jo'shqin bo'lib, uning elementlari orasidagi aloqalar unchalik bir xilda kechavermaydi, ayni mahalda turli o'lchamlarda namoyon bo'ladi. Bitta aloqani aks ettirishga urinib, jiddiylikda kam bo'lmagan boshqa modelni beixtiyor boy beramiz.

Ta'lim modelida tarkibiy qismlar muayyan jarayonlarning aksi sifatida namoyon bo'lishi kerak. Shuningdek, ta'lim faoliyati elementlarni qandaydir tartibga, tizimga, uyushishga bo'ysundirish usuli ekanligiga ham e'tiborni qaratamiz. Aynan ana shu tizimli-tashkiliy jihatni ta'lim tizimi va kadrlar tayyorlash modelida ifodalashga urinib ko'ramiz.

Ushbu tizim dastavval ikki tomon, ya'ni, tashqi ijtimoiy tashkil etish va tashqining aksi bo'lgan ichki tashkil etish sifatida namoyon bo'ladi. Biz «ta'lim» deb ataydigan narsa uning ichki ijtimoiy tashkil etilishidir.

Kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimi modelida elementlarning uch blokini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular: predmet-funktsional va qadriyat yo'nalishi, tashqi va ichki tashkil etishdir. Predmet-funktsional, qadriyat yo'nalishi unsurlari atrofida faoliyat maydoni hosil bo'ladigan qandaydir o'qni tashkil qiladi. Unda, ikkita qutb o'rtasidagi kabi o'zaro aks etish va unsurlarning tortishishi yuz beradi.

So'ng modellashtirishning navbatdagi bosqichi — blok unsurlarini ajratib olish keladi.

Predmet-funktsional, qadriyat yo'nalishida maqsad, funktsiya va natijani ajratib ko'rsatamiz. Ularning ahamiyati quyidagicha, ya'ni faoliyat predmetining qadriyat mazmuni funktsiyada aks ettirilishida, predmetning tashqi borlig'ining sub'ekt ehtiyojining holati bilan aloqasida namoyon bo'lishi mumkin. Funktsiya natijada «buyumlashadigan» ehtiyojda takrorlanadi.

Tashqi tashkil etishda, chamasi, nafaqat sub'ekt harakatlari vositalari tarkibini, balki ular faoliyat turlarida qanday aks ettirilishini, sub'ektga qanday harakat usullarini baxsh etishini izlash muhim. Ushbu blokda quyidagilarni: texnologiyalarni, belgilovchi usullar tarkibini, harakatlarning usullari, tarkibi, izchilligini, belgilovchi texnologiyalarni, metodlarni, so'ngra ijtimoiy tashkil etishni, ya'ni ijtimoiy kommunikatsiya, boshqa sub'ektlar bilan muloqot usullarini, jalb qilinadigan texnologiyalar va vositalarni ijtimoiy tashkil etishning funktsiyasini aks ettiruvchi infratuzilmani ajratamiz.

Ichki tashkil etish blokiga quyidagi tarkibiy qismlar kiritilishi mumkin:

1) yoʻnalish — u orqali funkuiyaga va uni amalga oshirish vositalariga munosabat, dispoziuiya belgilanadi;

2) undash — u orqali ichki holat ifodalanadi va uning ichki faolligi, oʻzini oʻzi roʻyobga chiqarishi kelib chiqadi;

3) moslashish va ishlab chiqish — ular orqali, taʼlim sohasiga jalb qilinadigan elementlarning dastavval moslashishi, soʻngra oʻzgarishi jarayoni shu harakatlar orqali kechadi.

Elementlarning u yoki bu blokka taalluqliligi ular dinamikasining umumiy yoʻnalishigagina urgʻu beradi. Shu bilan birga, biron-bir element tadqiqotchining diqqat markaziga tushsa, tizimning butun tuzilmasi uning oʻz oʻlchovida namoyon boʻladi.

Konseptual model uni izohlaydigan tushunchalar sharhiga muhtoj. Konseptual modelni obʼekt yaxlitligini nazariy tushunish sifatida tasavvur etish mumkin, u tadqiqotning barcha bosqichlarida oʻzi haqidagi tizimli tasavvurlarni qoʻllab-quvvatlaydi, keyingi barcha modellar uchun tarkibiy asos boʻlib xizmat qiladi, nazariy qoidalar va empirik maʼlumotlar asosida quriladi, navbatdagi har bir bosqichda yangi maʼlumotlar munosabati bilan oʻzgaruvchan modellar maʼno-mazmunini aniqlash zarur. Taʼlim tizimi va taʼlim jarayoni real holatining modeli oʻzgaruvchanlarning konseptual modeliga kiritilgan oʻlchov natijasi sifatida berilgan.

Birinchi, model real aloqalar va imkoniyatlardan kelib chiqadi, ikkinchidan, u echimning maqbul yoʻllarini topishga, real imkoniyatlarda koʻproq samara olishga erishishga yoʻnaltiriladi. Bunda taʼlim jarayoni ikkita asosiy komponentni — real holat va imkoniyatni oʻz ichiga oladi, yaʼni birga olganda bu taʼlimning real mumkin boʻlgan yoki boʻlishi mumkin — real holati, demakdir.

Tadqiqotimiz maqsadini eʼtiborga oladigan boʻlsak, u holda taʼlim jarayonlarini ular taʼlim tizimida bajarayotgan rolga koʻra tavsiflash oʻrinlidir. Shu asosda quyidagi jarayonlarni ajratib koʻrsatamiz:

- taʼlim tizimini shakllantirish;
- taʼlim tizimini barqarorlashtirish;
- taʼlim tizimining ish yuritishi;
- taʼlim tizimining moslashishi, yaʼni oʻzgaruvchan tashqi sharoitlarga moslashuvi;
- oʻtish jarayonlari (masalan, taʼlim muassasalarini boshqarishni markazlashuvdan xalos etish jarayonlari).

Taʼlim tizimining boshqariluvchanlik darajasi — unga boshqariladigan va boshqarilmaydigan oʻzgaruvchanlar nisbati bilan belgilanadigan, umuman olganda maqsadli taʼsir koʻrsatish imkonini ifodalaydigan oʻzgaruvchandır. Boshqariladigan oʻzgaruvchanlar nechogʻli koʻp boʻlsa, tizimning boshqariluvchanlik darajasi shunchalik yuqori, boshqarilmaydigan oʻzgaruvchanlar nechogʻli koʻp boʻlsa, tizimning boshqariluvchanlik darajasi shunchalik past boʻladi.

Shuni taʼkidlash kerakki, taʼlim tizimi boshqariluvchanligining real darajasi subʼekt tomonidan har doim ham mos ravishda aks ettirilmaydi, u etarli darajada baholanmasligi yoki, aksincha, haddan tashqari yuqori baholanishi mumkin.

Samaradorlik — taʼlim tizimining oʻzgaruvchanligi uni baholash kutilayotgan natija — taʼlim sifati nuqtai nazaridan ifodalanadi. Agar haqiqiy natija kutilayotgan natijaga asosan mos boʻlsa, u holda samarali jarayon haqida, toʻliq mos boʻlsa, — maqbul, qisman mos boʻlsa — kam samarador jarayon ekanligi haqida, mos kelmasa — samarasiz jarayon ekanligi haqida gapirish mumkin boʻladi.

Taʼlim jarayoni misolida taʼlim tizimining alohida tarkibiy qismlarini va ularni modellashtirishni tahlil qilamiz.

Oʻquv mashgʻuloti va subʼektning amaliyotda toʻlaqonli ishtirok etishga tayyorligi shakllanadigan muayyan hayotiy vaziyat taʼlim sohasidagi barcha jarayonlarning dinamik negizi hisoblanadi.

Oʻquvchilar mashgʻulotlarda oʻzlashtiradigan qadriyatlar tarkibi va mazmuni — muayyan oʻquv predmetlari sohasidagi mutaxassislar va pedagoglarning vakolatiga kirgan ish. Agar taʼlim insonni faoliyatning muayyan turlarini samarali amalga oshirishga tayyorlash deb qabul qiladigan boʻlsak, u holda taʼlim va uning har bir fazasini taʼlim jarayonida tayyorgarlik koʻriladigan kelgusi faoliyatning muayyan modeli sifatida tasavvur etish mumkin.

Taʼlimning muhim xususiyati uni mehnatdan farqlaydi. Bu mehnat jarayonida amaliyot inson oldiga qoʻyadigan hayotiy vaziyat; taʼlim, bu — imitatsion model boʻlib, uning mazmuni muhim tarkibiy qismlarda oʻquvchi tomonidan loyihalashtirilgan boʻladi. Ammo taʼlim shunchaki imitatsion

model emas, balki o'quvchi bilan o'qituvchining murakkab, integratsiyalashgan birgalikdagi alohida faoliyati demakdir. Bunda qadriyatlar aloqasi yuz beradi, ularni o'zlashtirish mexanizmlari vujudga keladi.

Shunday qilib, ta'limda biz ikki turdagi faoliyatning alohida modeli: o'quv faoliyati va o'quvchi faoliyati modeli bilan ish ko'ramiz. Ta'lim jarayonini hosil qiluvchi faoliyat, metodlar, texnologiyalar tizimi bir turdagi intellektual qadriyatlar kommunikatsiyasi ikkinchi turga o'tishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayoni tarkibi uch o'lchovda taqdim etilishi mumkin.

Birinchi, faoliyat va ta'limning normativ modellari, ularning talablari va yo'nalishlarini takror ishlab chiqish va amalga oshirish fazalari va shakllarida. Shunga muvofiq ravishda o'quv dasturlari, rejalar, metodlar va texnologiyalar, ularning ta'lim tizimida aks ettirilishi va amalga oshirilishi tahlil ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim fanlarining tarkibi va ularni o'zaro muvofiqlashtirish muammolari tadqiq qilinadi.

Ikkinchi, ta'lim modeli o'quvchi bilan o'qituvchining o'zaro munosabati sohasini, uning tarkibini qamrab oladi, o'quv mashg'ulotlarining haqiqiy turkumidan, ya'ni ta'lim jarayoni texnologiya-sidan iborat bo'ladi.

Uchinchi, ushbu struktura o'quv omillari va o'quvdan tashqari omillarning keng ko'lamdagi o'zaro munosabati nuqtai nazaridan ko'rib chiqilishi mumkin.

Ta'lim amaliyotidagi o'zgarishlar nazariy jihatdan anglab etilgan, mavjud nazariy modelga yangicha mazmun baxsh etgan taqdirda mustahkam negizga ega bo'ladi.

Ta'lim modellarini tuzishga bir necha xil yondashish mumkin:

1) ta'lim faoliyatining vujudga kelgan shakllarini tahlil qilish va qayta qurish, ta'limning muayyan shakllari va elementlari o'rtasidagi aloqalarni, tarkibiy aloqalarni tiklash, ularning o'quvchilarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirishdagi mazmuni va funktsiyalarini aniqlash;

2) faoliyatning u yoki bu shakliga xos bo'lgan muayyan mashg'ulotlardan kelib chiqqan holda, amaliyot sohasida sub'ektning unumli faoliyati o'xshashlaridan modelni (va shunga muvofiq ravishda ta'lim faoliyati shakllarini) loyihalashtirish.

Ta'lim tizimini modellashtirishda ham metodologik, ham metodik jihatdan hal etilmagan muammolar ko'proqdir. Ammo ularning qo'yilishi ta'limning ushbu muhim sohasini o'zlashtirish uchun bo'lishi mumkin. Tayyorlash maqsadlari, mazmuni va shakllarida umumiy ta'lim bilan maxsus ta'limning nisbati shulardan biridir. Qanday mutaxassisni tayyorlash kerak? Ta'limning barcha shakllarida universal ta'lim bilan maxsus ta'lim o'lchovi qanday bo'lishi lozim?

Har qanday shakldagi ta'lim shu ma'noda universalki, bunda uning mazmuni mutaxassis tayyorlanayotgan faoliyat turi bilangina izohlanmay, balki inson madaniyatini universal rivojlantirish ehtiyojlaridan ham kelib chiqadi. Kasb ta'limi insonni kasbga tayyorlabgina qolmay, balki uni madaniyatni yaxlit holda o'zlashtirishga yo'naltiradi. Shunga muvofiq ravishda kasbiy ta'lim modeli ham kamida ikkita blok, ya'ni, ta'limning umumta'lim va kasb ta'limi tarkibiy qismlaridan iborat bo'lishi kerak. Universal mazmun jamiyat madaniyati holatidan kelib chiqqan bo'lib, insonning fundamental o'zaro munosabatlarini aks ettiradi. Gumanitar, tabiiy-ilmiy, texnologik ta'lim — bu ta'lim uning mustaqil yo'nalishlari va uning maxsus shakllaridan har birining muqarrar tashkil etuvchisi, demakdir.

Bizningcha, ta'lim sifatining tarkibiy elementlarini ham aynan shu tarzda ajratib ko'rsatish lozim.

Gumanitar ta'lim insonda boshqa odamlar bilan muloqot qilish madaniyatini shakllantiradi, unga o'z hayotining mazmuni va maqsadini belgilab olishda, jamiyatda o'z o'rnini topishda, o'z imkoniyatlarini chamalashda yordam beradi. Tabiiy-ilmiy ta'lim insonning tabiat bilan o'zaro munosabati mazmunini, uning tabiiy rivojlanish tamoyillari va qonuniyatlarini ochadi, uni o'zlashtirishning maqbul usullarini topishda yordam beradi. Texnologik ta'lim jarayonida inson nafaqat kasb faoliyatida, balki ijtimoiy hayotning turli sohalarida, madaniy hayotda duch kelish mumkin bo'lgan fan-texnika yutuqlarini, zamonaviy madaniy hayot tamoyillari, metodlari va texnologiyalarini o'zlashtiradi.

Ta'limni modellashtirishda ta'lim modelining «zamonaviy» tarkibiy qismini belgilash kabi jiddiy muammo ham mavjud. Zamonaviy ta'lim o'z mazmuniga ko'ra ancha murakkab va uzoq davom etadigan jarayon. Ayrim turdagi ta'lim muddatlari bir necha haftadan o'nlab yillargacha davom etishi

mumkin. Ta'lim tizimi (shunga muvofiq ravishda ta'lim sifati ham) hozirdayoq o'z maqsadiga ko'ra texnologik va ijtimoiy rivojlanishda amaliyotdan o'zib ketishi kerak. Lekin bu o'sish qay yo'sinda bo'lishi kerak? Prognozlangan modelni ancha uzoq istiqbolga surib qo'yar ekanmiz, uning ishonchlilik darajasini pasaytiramiz. Qisqa turkumlarda madaniy tajribani moslashgan o'quv modeliga, o'quv ishi metodlari va texnologiyalarini o'rganishga o'tkazishda qiyinchiliklar tug'iladi. Ta'lim siyosatini muvofiqlashtirish uchun ushbu jarayonda muayyan turkumlarni yuzaga keltiruvchi ta'lim modellarini yangilash me'yorlari zarur bo'ladi.

9-Mavzu: Xalq ta'limi bosqichlarida tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirish

Reja:

1. Xalq tahlimi bosqichlarida o'ziga xos tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi.

Ta'lim muassasasining bosh maqsadi uning yo'nalishini, boshqalardan farqini belgilab beradi. Bosh maqsadning ushbu ta'lim muassasasining barcha imkoniyatlaridan maksimal ravishda foydalanishga imkon beradigan zarur harakatlarga o'tishini ta'minlash juda muhim. Ular o'z sohasining peshqadamlaridan bo'lishni maqsad qilib qo'yganliklarini, odatda, istar-istamas oshkora e'lon qiladilar. Ular, bu holda, mag'lubiyatga uchrash ehtimolidan cho'chiydilar. Siz asosiy maqsadni aniqlar ekansiz, uzoq muddatga mo'ljallangan, aniq ifodalangan sifat strategiyasiga tayansangiz, bu hol, albatta, aks etishi lozim. TM bosh vazifalarining asosiy qoidalarini belgilashda quyidagilarni e'tiborga olish zarur:

yodda oson saqlanishi;

- oson ommalashishi;
- tashkilotning nima bilan shug'ullanishi aniq belgilanishi
- sifatni oshirishga qo'shilgan hissa darajasi;
- tashkilotning uzoq muddatli maqsadlari to'g'risida nizom bo'lishi;
- iste'molchiga yo'naltirilgan bo'lishi;
- moslashuvchan bo'lishi shart.

Ta'lim muassasasi qadriyatlarini o'zi aniqlab olishi zarur, ammo ular quyida tavsiya qilinadiganlardan aksariyatini o'z ichiga olishi mumkin:

- ta'lim oluvchilar (o'quvchi, talaba)ni birinchi o'ringa qo'yamiz;
- kasbiy halollikni yuqori darajada tutgan holda ishlaymiz;
- yagona jamoa bo'lib ishlaymiz;
- doimiy yaxshilanishga (taraqqiyotga) intilamiz;
- barchaga teng imkoniyatlar yaratish ustida ishlaymiz;
- ta'lim xizmatlarining eng yuqori sifatini ta'minlaymiz.

Nuqtai nazar, vazifa va qadriyatlar aniqlangach, ularni erishish mumkin bo'lgan maqsadlar bilan bog'lash kerak. Ular o'lchanadigan bo'lishi juda muhim,

ya'ni ularning yutuqlari natijasini muntazam ravishda baholab turish mumkin bo'lishi lozim. Shunday qilib, maqsadlar haqiqiy va erisha oladigan bo'lishi kerak.

Ehtimol tutilgan ijobiy va salbiy omillarni, istiqbol yo'nalishlari va omadsizliklarni tahlil qilish strategik rejalashtirishning zaruriy bosqichi hisoblanadi. U ta'lim muassasasining imkoniyatlarini aniqlashning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Unda ikkita tarkibiy qismni, ya'ni, ob'ekti ta'lim muassasasining o'z faoliyati bo'lgan ichki tahlilni va uning faoliyatidagi tashqi vaziyatlar tahlilini ajratib ko'rsatish mumkin. Kuchli va zaif tomonlarning nisbatini, mohiyatan, ta'lim muassasasi samaradorligining ichki auditi deyish mumkin. Imkoniyatlar va ehtimol tutiladigan xavf-xatarlar jihati esa TM ish olib boradigan sharoitdagi tashqi vaziyatlarga tegishlidir.

Bu tahlilning maqsadi — afzallikni kuchaytirib, nuqsonlarni mumkin qadar kamaytirish, xavf-xatarni susaytirib, yangi imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Agar tahlilni ham iste'molchilarning talablariga, ham TMning talab bozorida raqobatlashish imkoniyatlariga qaratsak, tahlilning samaradorligini oshirish mumkin bo'ladi. Bular uzoq muddatli korporativ strategiyani yaratishda ikki asosiy soha hisoblanadi. TM strategiyasi TMning raqobatbardoshligini oshirib, iste'molchilarni o'ziga jalb etishini maksimal darajada kuchaytiradigan tarzda ishlab chiqilishi lozim.

Agar bu missiya va qadriyatlarni o'rganish bilan qo'shilsa, u holda ushbu muassasaning raqobatchilaridan farqini belgilab olish mumkin bo'ladi. Muassasaning farqli xususiyati belgilab olingach, uning uchun sifat tavsifnomasini aniqlash ancha oson bo'ladi.

Ehtimol tutilgan ijobiy va salbiy omillarni, istiqbol yo'nalishlari va muvaffaqiyatsizliklarni tahlil qilish natijalari quyidagicha ko'rsatilishi mumkin:

Ijobiy omillar:

- o'quvchilarning ko'p miqdorda qabul qilinishi;
- ijodiy boshqaruv ishi;
- imtihonlarning ijobiy natijalari;
- kuchli musiqa va san'at kafedralari;
- ota-onalarning kuchli ko'magi;
- hokimiyat organlarining qo'llab-quvvatlashi.

Salbiy omillar:

- eski, xarob bino;
- xodimlarning yoshi (o'rta va katta yoshdagilarning ko'pligi);
- byudjetning ozligi;
- uskuna va jihozlar kamligi.

Istiqbollari:

- yaxshi yerda joylashgan, o'zi kabi yuqori obro'-e'tiborga ega bo'lgan qo'shni TM bilan qo'shilish;
- predmet bo'yicha olimpiadalarda va sportda obro'-e'tibor qozonish;
- qo'shilish va yangi muassasa hosil bo'lishi natijasida umumiy yuksalish;
- taklif qilinadigan ta'lim xizmatlari sonini ko'paytirish uchun xodimlarning kasbiy saviyasini oshirish imkoniyati;
- birlashgan muassasa qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilishi

mumkin.

Muvaffaqiyatsizliklar:

- o'z qiyofasini, ustunliklarini va obro' -e'tiborini yo'qotish xavfi;
- vaqtdan ilgari nafaqaga chiqib ketishi mumkin bo'lgan tajribali o'qituvchilarni yo'qotish xavfi;
- boshqa TMning muhiti ustun bo'lib qolishi;
- ba'zi bir hokimiyat vakillarining qo'llab-quvvatlashlaridan mahrum bo'lish ehtimoli.

Muvaffaqiyatning tanqidiy omillari (MTO) — bu, agar ta'lim muassasasi iste'molchilar talablarini qondirishga va bosh vazifani hal qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, u erishishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlardir. Ular strategiyaning navbatdagi bosqichi bo'lib, TMning asosiy tavsifi yo'nalishini belgilab beradi.

Ular faoliyat ko'rsatkichlari (FK) bilan, juda bo'lmasa ham, o'xshash. Farqi shundaki, FK, odatda, MTOdan kelib chiqadi va TMning asosiy vazifasiga yoki iste'molchilar talabiga doim ham to'g'ridan-to'g'ri taalluqli bo'lavermaydi.

MTO — TM o'zi uchun belgilab oladigan muhim omillardir. Muvaffaqiyatning tanqidiy omillari ro'yxati o'lchovning tashqi ko'rsatkichlarini, masalan, iste'molchining qoniqqanligi yoki mikrorayon uchun foydani ham, ichki, ya'ni kadrlarning zamon talablariga muvofiq kasbiy tayyorgarligi yoki jamoa bo'lib muvaffaqiyatli ishlashni ham o'z ichiga oladi. Bu omillar sifatga umumiy tarzda qaratilgani holda korxonada tomonidan erishiladigan aniq maqsadlarni o'z ichiga olishi kerak.

Ichki MTO quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- qabul tizimining barcha uchun ochiqligi;
- o'quvchilarning talablariga mos o'qitish metodlari;
- inoq jamoalar;
- imtihon baholarining yuqoriligi;
- o'quvchilarning shaxsiy, madaniy va axloq bobida kamol topishi;
- o'quv texnologiyalarining takomillashtirilishi;
- yangi tartib-qoidalarni joriy qilish tashabbusiga jamoa xodimlarining ko'pchiligini jalb qilish;
- ta'lim saviyasini oshirish va ta'lim muassasalariga kirgan o'quvchilar soni.

Tashqi MTOga quyidagilar kirishi mumkin:

- TMga qabulni takomillashtirish;
- iste'molchi nuqtai nazaridan (so'rovlar natijasiga ko'ra) ishdan yuqori darajada qoniqish;
- talabning oshishi;
- kamchilik iste'molchilar yoki nomaqbul guruhlarga ko'proq e'tibor berish va ularning manfaatlarini hisobga olish;
- mikrohudud ehtiyojlariga e'tiborni kuchaytirish;
- ishlab chiqarish va fan bilan yaqindan hamkorlik qilish.

Ta'lim sifatini boshqarish tizimining navbatdagi tarkibiy qismi rejani ishlab chiqishdan iborat.

Ba'zan muassasani rivojlantirishning umumiy rejasi deb ataluvchi strategik rejada, muassasa bosh maqsadga erishish uchun qo'llamoqchi bo'lgan o'sha choralar batafsil aniqlashtiriladi. U ta'limning o'rtacha muddatini belgilaydi,

odatda bu uch yillik davrdir. Ushbu rejaning maqsadi — ta'lim muassasalariga yo'nalish berish. Biroq bunday reja qat'iy vosita bo'lishi mumkin emas, u, agar sharoit taqozo etsa, ichki yoki tashqi shart-sharoitlarga muvofiq o'zgarishi mumkin va lozim.

10-Mavzu: Menejmentda marketingni ahamiyati

1. Ta'lim tizimida kadrlar sifatiga e'tibor.
2. Maktabgacha ta'lim muassasalari hodimlarini kasbiy va shaxsiy faoliyatlarini shakllantirish qonuniyatlari.
3. Maktabgacha ta'lim muassasasi hodimlarining kasbiy tayyorgarligi va unga qo'yilgan talablar.
4. Maktabgacha ta'lim xodimlarining kasbiy mahoratlarini takomillashtirish yo'llari. Mudira tomonidan kadrlar bilan ish usullari.
5. Zamonaviy ta'lim tizimida tarbiyachi kasbi va unga qo'yilgan talablar.

O'zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta'limi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, raqobatbardosh kadrlarni mamlakatimizda va chet ellarda fan, texnika, texnologiya hamda iqtisodiyotning rivojlanishini hisobga olgan holda mutanosiblik tarzida kadrlarni tayyorlashni amalga oshiradi. Raqobatbardosh mutaxassislarining yangi avlodi istiqbol masalalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga, yuqori fikrlash madaniyati hamda ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy axborot bobida mustaqil yo'nalish olish mahoratiga ega bo'lishi darkor.

Zamonaviy mutaxassis tabiiy-ilmiy va kasb-hunar bilimigagina emas, balki o'zining ma'naviyati va madaniyatini belgilovchi gumanitar bilimlarga ham ega bo'lishi darkor. Axloqiylikdan mahrum mutaxassis qabul qilinayotgan qarorlarning haqiqiy oqibatlari uchun o'ziga ham, jamiyatga ham javob bera olmaydi. Mamlakatimiz ta'lim tizimining maqsadi, vazifalari, jarayoni va natijasining tub farqi shunda.

Yuqorida ta'kidlanganidek, kasb-hunar ta'limidan ko'zlangan asosiy maqsad raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlash hamda raqobatbardosh ta'lim xizmati ko'rsatishdan iborat.

Islohotlargacha bo'lgan davrda, barcha darajadagi kadrlarni tayyorlash sifati past bo'lganligi oqibatida, bu maqsad to'liq bajarilmasdi.

Respublikadagi hunar-texnika bilim yurtlari asosan ikkinchi razryadli, malakasi past ishchi kadrlarni tayyorlar edi. Ularni ishlab chiqarishda yuqori malakali qilib «etishtirish» uchun ko'p vaqt va mablag' talab etilardi.

Past sifatli mutaxassislarni tayyorlash, ayrim istisnolar bilan oliy ta'limga ham xos edi. Buning sababi ko'p darajada:

Mutaxassislarni ommaviy chiqarish, respublika iqtisodiy va ijtimoiy hayotining asossiz ehtiyojlari, bu hol soxta lavozimlar nomenklaturasi ortishiga olib keldi. Bu omil oliy ma'lumotning nufuzi va uning sifat ko'rsatkichlariga qo'yiladigan talab pasayishini keltirib chiqardi;

Oliy ma'lumotli mutaxassislar mehnati natijalari ham miqdor, ham sifat jihatdan qadrsizlanishi. Yangi texnika va texnologiyani yaratadigan mutaxassis

o'zining ijodi natijalarini ro'yobga chiqaradiganlardan kam maosh olardi. Ayni mahalda yuqori malakali mutaxassislarning ko'pchiligi o'rta bo'g'in mutaxassislariga xos kasbiy vazifalarni bajarishardi;

Mutaxassislar tayyorlash va ulardan foydalanishda raqobatchilik sharoiti yo'qligi, bu hol ularning ta'limi sifatiga qo'yiladigan talablar jiddiy pasayishiga olib keldi.

Mazkur sabablardan tashqari, tayyorlash jarayonida sifatni yaxshilash ko'zda tutilmagan, bir xil darajadagi qat'iy cheklangan oliy ta'lim tizimi ham mutaxassislar tayyorlash sifatining pasayishiga olib keldi. Odatda, qancha qabul qilingan bo'lsa, shuncha mutaxassis chiqarilardi (ozgina saralanish bundan mustasno), to'g'rirog'i, shuncha oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom berilardi. Bunda, odatda, raqobatbardosh potensial mutaxassislar barcha bitiruvchilarning 7—12 %dan oshmasdi.

Kasb-hunar ta'limining barcha darajalarida shunday kadrlar tayyorlashning natijasi ko'pchilik bitiruvchilarning sifati pastligi hamda raqobatga dosh berolmasligidan iborat bo'ldiki, bu mustaqil

O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishida jiddiy iqtisodiy ziyon yetkazdi.

AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasi barcha darajalardagi kadrlar tayyorlash sifati va ularning raqobatbardoshligiga:

- Ta'lim, fan va ishlab chiqarishning jips aloqasi;
- Ta'lim muassasalari tiplarining va fan, texnika, texnologiya hamda iqtisodiyotning eng so'nggi yutuqlari asosida ishlab chiqilgan kasb-hunar ta'limi dasturlarining xilma-xilligi;
- kasb-hunar ta'limi tizimini iqtisodiyotning ustuvor hamda daromad keltiradigan tarmoQiga aylantirish;
- ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlar hamda moddiy-texnika bazasi bilan ta'minlash;
- kasb-hunar ta'limi tizimiga yuqori malakali o'qituvchilar va mutaxassislarni jalb etish;
- ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish;
- kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va baholashning ob'ektiv tizimini qo'llash;
- aql-idrokning rivojlanishi, o'lchanishi va baholanishi, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlar muammosi, shuningdek, kasbga yo'naltirish muammosi bo'yicha psixologik-pedagogik tadqiqotlarni bajarish;
- o'qituvchilarning moddiy va ijtimoiy jihatdan yuqori darajada himoyalanganligi tufayli ta'minlanadi.

Barcha darajadagi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash strategiyasi negizida ularni tayyorlash sifatini uch asosiy bosqichda ta'minlashga majmuaviy yondashuv yotadi.

12-Mavzu: Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni modellashtirish

Reja:

1. Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishning ilmiy tadqiqot asoslari.
2. Ta'limni tashkil qilish va boshqarish bo'yicha o'tkazilayotgan islohatlar.
3. Ta'lim menejmenti funksiyalari, boshqaruv qarorlari.
4. Ta'limni boshqarish va bilimdonlik.
5. Maktabgacha ta'lim muassasasini boshqarish va tashkil etishda huquqiy meyorlar.

Tayanch tushunchalar:

Metodologiya, ta'lim tizimi, ta'lim sifati, modellashtirish, ilmiy bilish, umummetodologik, dialektik, tadqiqot, jarayon, qonuniyat, tamoyil, ijtimoiy tizim.

Ta'lim sifati muammolarini tadqiq qilish metodologiyasi uch xil tahlil darajasini: tadqiqotning umummetodologik, xususiy metodologik va aniq metodikalarini o'z ichiga oladi.

Tizimli-tarkibiy tahlil dastlab XVIII asrda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi misolida ishlab chiqilgan. O'shanda tayyor metodologiya ishlab chiqilmagan edi, biroq u yaxlit o'rganishda tizimli-tarkibiy tahlil imkoniyatlari va istiqbollari ko'rsatdi. Keyinchalik ijtimoiy-falsafiy, psixologik va pedagogik muammolarni ishlab chiqishda ushbu tamoyil tobora keng qo'llanilmoqda.

Ta'limni tizim sifatida jamiyat tuzilmasidan ajralgan holda ko'rish imkonini beruvchi mezon uning aniq maqsadga yo'naltirilganligidir. Tizimli yondashuvda ko'zda tutilgan maqsadli tahlil ta'limni ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, siyosiy va boshqa jarayonlar bilan aloqalari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish imkonini beradi. Ta'limning har bir tarkibiy qismi ham ana shu aloqaning muayyan jihatini aks ettirgan holda, aniq yo'nalishdagi maqsadga ega. Masalan, ta'lim sifati, ta'lim tizimining tarkibiy-mazmunli qismi sifatida davlat, jamiyat, shaxsning (ijtimoiy-shaxs buyurtmasi) maqsadli ko'rsatmalari va qadriyatlar bilan bog'liq yo'nalishlari, fan, texnika, madaniyat, texnologiyalarning taraqqiyot darajasi, shuningdek tizimning tegishli tarzda kadrlar hamda resurslar ta'minlanishi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy tizimni o'rganishda «hamma narsa hamma narsadan iborat» tamoyili maqbuldir. Murakkab tizimning tarkibiy unsurlarga bo'linishi ijtimoiy hodisalar va jarayonlarni tadqiq qilishning eng to'g'ri usulidir.

Tizimli — tarkibiy tahlilning qo'llanilishi quyidagilarni nazarda tutadi.

1. Ta'lim sifatini o'zaro ta'sirda bo'lgan tarkibiy qismlardan tashkil topgan yaxlit masala sifatida ko'rib chiqish. Shu boisdan, ta'lim sifati muayyan bog'liqlikda va ierarxiyada bo'lgan qator tarkibiy qismlarni birlashtiruvchi yaxlit tizim sifatida tahlil qilinadi.

2. Ta'lim sifatini o'rganishda asosiy e'tibor tarkibiy qismlarning o'zaro va muhit bilan ta'siriga qaratiladi. Bunda ta'lim sifati tarkibiy qismlarining funktsional ierarxiyasini va ularning bo'ysunishini aniqlash zarur. Faqat ana shu o'zaro ta'sir asosidagina birmuncha yuqori darajadagi hal qiluvchi tarkibiy qismlar yanada takomillashgan ta'lim sifatining shakllantirilishini ta'minlaydi. Ta'lim sifatining tashqi omillar bilan o'zaro ta'sirini o'rganish, unga ta'sir etuvchi shart-sharoitlarni aniqlash hamda aks ettirilayotganning aks ettirilgani uchun ahamiyatini har tomonlama va chuqur ochib borish imkonini beradi.

3. Ta'lim sifatini dinamik holat sifatida ko'rib chiqish. U ham shaklan, ham mazmunan va pirovard (kutlayotgan, maqsadli va haqiqiy) natijaga qarab doimiy o'zgarib turadi. Bu holatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash ta'lim sifatini rivojlantirish jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi.

Ta'lim sifati va unga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlarning asosiy tavsiflarini tadqiq qilish rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritish imkonini beradi. Bunday yondashuvda uni o'zgartirish jarayonida ta'lim sifati tarkibi va mazmunidagi o'zgarishlarni o'rganish imkonini yaratadi.

Ta'lim tizimiga ob'ektiv ravishda xos bo'lgan integral sifat — inerujyalilik — ta'lim va kasb-hunar dasturlarining tegishli tarkibiy qismlarini takomillashtirishga tegishli darajada prognozlashtirib

yondashish zarurligini anglashda, ularning aniq o'zlashtirilishini ta'minlashda, shuningdek, tegishli pedagogik tizimga singdirilgan ilmiy bilimlarning bashoratli yo'nalishi sharoitida hisobga olinishi mumkin. Aynan shu boisdan ham, uzluksiz ta'lim va pedagogika fani sohasida ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-tarixiy, etnopsixologik va boshqa turdagi prognoz qilish natijalarini majburiy tartibda integratsiyalashni ko'zda tutuvchi uzluksiz ta'limning yaxlit tizimini rivojlantirishni prognozlashga tizimli yondashish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim sohasida prognozlash va istiqbolni ko'zlab rejalashtirish masalalarini eng muhim muammolar qatoriga qo'shayotgan taniqli olimlar, pedagoglar va ta'lim tashkilotchilarining aksariyat ishlarida ushbu g'oya qat'iy ta'kidlab o'tilmoqda. Ammo vazifa ta'lim sohasidagi prognoz tadqiqotlarning zarurligini anglab etishdan respublikada ta'lim tizimini rivojlantirish uchun amalda aniq ifodalangan ijtimoiy buyurtmani amalga oshirish imkonini beruvchi tadqiqotlarning o'ziga o'tishdan iboratdir. Bunda ta'lim-pedagogik prognoz bilan bog'liq ishlarda istiqbolda ta'lim iqtisodiyotining prognozli muammolariga, masalan, istiqbolli miqdoriy parametrlar, ya'ni pedagogik kadrlarga, malakali ishchilar va mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashga, turli xildagi ta'lim muassasalarining tegishli miqdori va ixtisosini bashorat qilishga, ularni oqilona joylashtirishga, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar mavzusini istiqbolli rejalashtirishga, ta'lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlashtirishga katta e'tibor beriladi. Xususan, uzluksiz ta'limning turli darajalardagi maqsadlarini, ta'lim sifatini, uning mazmunini, usullari, o'quv-tarbiyaviy faoliyat vositalari va tashkiliy shakllarini prognozli asoslash bilan bog'liq pedagogik va didaktik muammolar hamon etarlicha ishlab chiqilmayapti. Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishni bashorat qilishning asosiy metodologik va nazariy muammolariga oid mavzular doirasi juda kengdir.

Avvalo, pedagogik prognozlashning real ilmiy maqomini hamda bilimlarning ushbu tarmog'ini qamrab oladigan o'sha fan sohasini aniqlash, pedagogik prognozlash mumkin bo'lgan ob'ektlarni va asosiy yo'nalishlarni ko'rsatish zarur. Shundan so'ng, prognozlash ob'ektlari va konkret shart-sharoitlarning o'ziga xos xususiyatini hisobga olgan holda, ta'lim sohasida tashxisli tadqiqotlarni tashkil etishga nisbatan yondashuvlarni belgilovchi metodologik tamoyillar tizimini asoslash lozim. Bunda prognozlash tavsifidagi ishonchli axborot olishni va uning to'g'riligini ta'minlaydigan muayyan tadqiqot usullarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda pedagogik prognozlash nazariyasi va amaliyotining dastlabki bosqichida O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishga oid turli prognoz loyihalarni ko'rib chiqish emas (vaholanki, ularni olish jarayonlari bayon qilinmagan holda bunga urinishlar bo'lgan), balki shunga o'xshash loyihalarni isbotlanganlik darajasini oshirish vositalari va usullarini izlash muhim o'rin tutadi. Shu bois yagona pedagogika fani pedagogik prognozlash doirasida yangi yo'nalishni, ya'ni barcha bo'g'inlarda uzluksiz ta'limning yaxlit, murakkab va dinamik tizimini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bashoratli tadqiqotlarning birinchi galdagi vazifalarini hal qilishga va, shu bilan birga, ana shunday tadqiqotlarni samaraliroq o'tkazish uchun muayyan metodologik yo'nalishlarni belgilab olishga diqqat-e'tiborni qaratish imkonini beradigan umumlashtirilgan, tartibga solingan ob'ektlarni aniqlash muhim.

Qanday pedagogik tarkibiy qismlar uzluksiz ta'limning yaxlit tizimini rivojlantirish istiqbollari belgilab beradi, prognozlilashni talab qiladi (bu juda muhimdir) va prognozlash mumkin? Bunda, shubhasiz, muayyan pedagogik tizimning va shunga muvofiq ravishda umuman ta'lim tizimining pirovard natijasi bo'lmish ta'lim sifatini shunday jihatlar sirasiga kiritish lozim. Boshqacha aytganda, ta'lim sifati muammosiga nisbatan olganda, quyidagilar: o'quv-tarbiya tizimlari (ta'limning har bir bosqichida) va pedagogik tizim (umuman ta'lim tizimiga nisbatan olganda) pedagogik prognozlash ob'ektlari hisoblanadi.

